

Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2023-yil

3-avgust

payshanba

№ 31 (4621)

Postda Ha nocty

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

▼ 2023-yil – Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili



Sog'liq inson hayotida eng bebaho ne'matdir. Tibbiyot xodimlari ana shu bebaho ne'matni asrashda barcha-barchaga birdek yordam bermoqda, najotkorimizga aylanmoqda, desak to'g'ri bo'ladi.

Bugungi kunda Toshkent shahar IIBB Tibbiyot bo'limi poliklinikasining katta jamoasi muassasada yaratilgan zamonaviy shart-sharoit va qulayliklardan unumli foydalanib, ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolari hamda soha faxriylarining salomatligini saqlash yo'lida bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qilishmoqda.



Suratlarda: Toshkent shahar IIBB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi rentgent laboranti Anora Kulibekova; poliklinika umumiy amaliyot shifokori Hafiza Rahmonova hamda hamshira Dilnoza Qosimovalar.

MAQSAD BIR, HARAKAT MUSHTARAK

Bog'ot Xorazm viloyatining janubi-sharqiy qismida joylashgan, janubdan Turkmaniston bilan chegaradosh tumanlardan biri. Tumanda 43 ta mahalla fuqarolar yig'ini bor. Tuman aholisi soni qariyb 170 ming kishini tashkil etadi.

Uzumchilik, oziq-ovqat sanoati va turizm sohalariga ixtisoslashgan tumanda xalq osoyishtaligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlashda tuman IIB xodimlari boshqa tuzilmalar bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yg'an. Bu esa o'z natijasini berib, tuman hududida jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqbuzarliklarning oldini olishda sezilarli natijalarga erishilmoqda.

7



ТАЙИНЛАНДИЛАР



**Подполковник Алишеров
Абдурашид Махмудович**
ИИБ Халқаро ҳамкорлик
бошқармаси бошлиғи
лавозимида.



**Полковник Парпиев
Анвар Кадиорович**
Фарғона вилояти Қўқон
шаҳар ИИБ бошлиғи
лавозимида.

САҲНАДА ҚУВНОҚЛАР
ВА ЗУККОЛАР

Қорақалпоғистон Республикаси ички ишлар органлари ходимлари ўртасида «Қувноқлар ва зукколар» кўрик-танлови ўтказилди. Унда жамоат тартибини сақлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, жиноятчиликка қарши курашиш ва тинчлик-осойишталикни сақлашга муносиб ҳисса қўшиб келаётган бир қатор ходимлардан иборат 4 та, яъни «Беклар», «Барса келмас», «Ички ишлар» ва «Уч авлод» жамоалари иштирок этди.

Кўрик-танловда жамоалар икки шарт бўйича беллашди. Таништирув ва хизмат давомида содир бўлган қизиқарли воқеаларни маданиятли тарзда кўрсатиб бериш шартлари бўйича жамоалар чиқишлари ҳайъат аъзолари томонидан холис баҳолаб борилди. Унга кўра, биринчи ўринни «Ички ишлар», иккинчи ўринни «Уч авлод», учинчи ўринни эса «Барса келмас» жамоалари эгаллади.

Ғолиб жамоалар диплом ва эсдалик совғалари билан тақдирланди.

Бахтибай ҚУЛМУРАТОВ,
подполковник.



Миннатдорлик

УМРИДАН БАРАКА
ТОПИШСИН

Мен узоқ йиллар ички ишлар органлари тизимида турли вазифаларда хизмат қилдим. Айни пайтда эса пенсиядаман. Оилавий шарт-шароитим яхши. Биз, пенсионерларга давлатимиз томонидан алоҳида эътибор қаратилаётганидан мамнунмиз.

Яқинда турмуш ўртоғим билан Ички ишлар вазирлигига қарашли Самарқанд Реабилитация марказида даволаниб қайтдик. Сиҳатгоҳда яратилган қулай шарт-шароитлар ва шифокорларнинг хушмуомалалиги, муолажаларидан беҳад хурсанд бўлдик. Реабилитация маркази раҳбари ва ўринбосарлари ҳар куни эрталаб ҳол сўраб туришлари кўнгилмизни кўтарди. Айниқса, бўлим шифокори – кардиолог Шарифахон Аҳадова, ҳамшира Шодияхон Олимованинг хизматлари бизга жуда манзур бўлди. Илоҳим, ҳаммалари умридан, касбидан барака топишсин.

Мухторжон ДАДАЖОНОВ,
истеъфодаги подполковник.
Наманган вилояти.

Бугуннинг талаби

ХАВФСИЗЛИК ЙЎЛИДАГИ ҲАМКОРЛИК

- Навоий вилояти ИИБ,
- прокуратураси ҳамда
- Ўзбекистон Республи-
- каси Миллий гвардияси
- Навоий вилояти бўйича
- бошқармаси ходимлари
- ўзаро ҳамкорликда про-
- филактик тадбир ташкил
- этишди.

Тадбир давомида кўча ва жамоат жойларида шубҳа уйғотган ҳамда ҳуқуқбузарлик содир этган фуқаролар ички ишлар органларига олиб келиниб, шахсларига аниқлик киритилиб, уларга нисбатан белгиланган тартибда қонуний чоралар кўрилди. Тунги вақтда қаровсиз юрган болалар вилоят ИИБ Вояга етмаганларга ижтимоий-ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш марказига олиб келинди. Маст-



лик ҳолатида бўлган фуқаролар эса Навоий шаҳар наркология диспансерига ётқизилди. Кўча ва жамоат жойларида бемақсад юрган, тайинли яшаш жойига эга бўлмаган шахслар Реабилитация марказига жойлаштирилди.

Нохуш ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида фуқароларга буклет ва флаерлар тарқатилди.

Шунингдек, ҳудудлардаги кафе-барлар, дорихоналар ва савдо дўконлари эгалари билан профилактик суҳбатлар ўтказилди. Мазкур жойларда ўғрилиқ жиноятларининг олдини олиш учун Миллий гвардия кўриқлаш хизмати пултига уланиш, видеокузатув камераларини ўрнатиш чораларини кўришлари лозимлиги тўғрисида тушунтириш берилди. Идоравий қорувуллик бўлинмаларида хизмат олиб бораётган объект қорувулларининг хизмат фаолияти ўрганилди.

Маҳлиё ХОЛОВА,
ўз мухбиримиз.

Навоий вилояти.



TO'MARIS IZDOSHLARI

SHIDDATLI, SHIJOATLI, SHAXDAM ODIMLAR

Ichki ishlar organlarida xizmat qilayotgan ayol xodimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sohaviy xizmat jamoalarida ularning o'rnini va rolini kuchaytirish, iste'dodlarini namoyon qilish, kasbiy va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish, xizmat qiyinchiliklariga nisbatan iroda va matonatini oshirish hamda ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishdek ezgu maqsad ko'zlangan «To'maris izdoshlari» ko'rik-tanlovining respublika bosqichi Samarqandda bo'lib o'tdi.

Tanlovning ochilish marosimida Ichki ishlar vazirligi mutasaddi vakillari, viloyat Ichki ishlar boshqarmasi mas'ullari so'z olib, ayol xodimlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar xususida alohida to'xtalib o'tishdi.

Shundan so'ng jamoalar tanlovning tanishtiruv sharti bo'yicha o'z chiqishlarida To'marisning jasorati, shijoati, yurtga sadoqati va vatanparvarlik jihatlarini aks ettirishdi. Tanlov doirasidagi turli masofalarga yugurish, yaradorlarni jang maydonidan olib chiqish va erkin uslubda 50 metr masofaga suzish shartlarida ishtirokchilar nechog'lik mahoratli, epchil va tezkor ekanliklarini namoyish qilishdi. Jang maydonida yaralanganda birinchi tez yordam ko'rsatishda xodimalarning tibbiy bilim va ko'nikmalari ham sinovdan o'tkazildi.

Tizimda erkaklar bilan yelkama-yelka, zo'r qat'iyat, matonat va fidoyilik bilan faoliyat olib borayotgan xodimlar oilada mohir pazanda, sarishta beka ekanliklarini dala sharoitida mazali taom va non pishirish shartini bajarish jarayonlarida isbotlashdi.

Shundan keyin ishtirokchilar dala-o'quv maydonida saf tortishdi. Bu yerda «Makarov» to'pponchasidan 25 metr masofaga, «Kalashnikov» avtomatidan 100 metr masofaga o'q otish bo'yicha bahslar bo'lib o'tdi.

Nihoyat, besh kun davom etgan bellashuv natijasiga ko'ra tanlov g'oliblari, turli nominatsiyalar sovrindorlari aniqlandi. Yakuniy ballarga ko'ra, tanishtiruv shartida uchinchi o'rin Navoiy viloyati IIB, ikkinchi o'rin

Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, birinchi o'rin Samarqand viloyati IIB jamoasiga nasib etdi. «Kalashnikov» avtomatidan o'q otish musobaqalarida uchinchi o'rinni Qashqadaryo viloyati IIB jamoasi vakilasi, safdor O'g'iloy Jumanova, ikkinchi o'rinni Xorazm viloyati IIB vakilasi, leytenant To'maris Qadambayeva hamda birinchi o'rinni Qorovul qo'shinlari qo'mondonligi vakilasi, leytenant Hafiza Tohirova qo'lga kiritdi.

– **Mohir mergan bo'lish nihoyatda ziyraklikni, ehtiyotkorlikni talab qiladi, – deydi leytenant To'maris Qadambayeva. – Men ushbu bahsda 84 ball to'plab, g'oliblar safidan joy egallab, jamoadoshlarim ishonchini oqlaganimdan juda xursandman.**



Yaradorni jang maydonidan olib chiqish shartida uchinchi o'ringa Qashqadaryo viloyati IIB jamoasidan safdor O'g'iloy Jumanova, ikkinchi o'ringa Buxoro viloyati IIB jamoasidan kichik serjant Muharram



Baxronova, birinchi o'ringa Samarqand viloyati IIB jamoasidan mayor Mohina Yunusova loyiq ko'rildi. Suzish bo'yicha musobaqalarda uchinchi o'rinni Sirdaryo viloyati IIB jamoasi vakilasi, podpolkovnik Saida Abduhamidova, ikkinchi o'rinni IIV Akademiyasi vakilasi, safdor Sabina Ramzanova hamda birinchi o'rinni Surxondaryo viloyati IIB jamoasi vakilasi, katta leytenant Surayyo Xudoyqulova qo'lga kiritdi.

dala sharoitida non pishirish mahorati ham sinovdan o'tkazildi. Va uchinchi o'rin IIV Akademiyasi xodimasi, podpolkovnik Nargiza Aripxodjayeva, ikkinchi o'rin Samarqand viloyati IIB xodimasi, leytenant Sitara Arziyevaga, birinchi o'rin JIED xodimasi, podpolkovnik Muhabbat G'afurovaga nasib qildi.

– Har bir xodima nafaqat zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to'kis bajarishga harakat qiluvchi xodima, balki o'z uyida saranjom beka, qo'li shirin pazanda bo'lishi kerak, – deydi safdor Saodat Vahobova. – To'g'risi, o'tin taftida, qozonda ovqat tayyorlash oson kechmadi. Guruhimiz qizlari bilan birgalikda osh damlab, dasturxon tuzadik. Bunda har bir xatti-harakatimiz, hatto sanitariya-gigiyena qoidalariga nechog'lik rioya qilayotganimiz talabchan hakamlar nazaridan chetda qolmadi. Ammo yakuniy ballar e'lon qilinganida barhamizning ko'nglimiz yorishdi.

Xodimlarda yuksak jangovar tayyorgarlikni oshirish, yetakchilik xususiyatlarini rivojlantirish, jamoalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdek o'ziga xos jihatlarni maqsad qilgan bellashuv qizg'in va murosasiz kechdi. Umumjamo'a hisobida Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV hamda Samarqand viloyati IIB vakillari uchinchi, Qashqadaryo viloyati xodimalari ikkinchi, IIV Akademiyasi xodimalari faxrli birinchi o'rin bilan taqdirlandi.

Soniyalar daqiqaga, soatlar kunga, oylar yil tomon siljib, vaqt tizginini hech kimga bermay davom etaveradi. Ammo asrlar qa'ridan To'marisdek momolarimizning Vatan himoyasidek sharaflari, muqaddas burchga sadoqati, jasorati har bir xodimaning qalbida ibrat mayog'i bo'lib, ularni el-yurt ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilishga da'vat etaveradi.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirlarimiz.**



■ Республика Каракалпакстан

ПОДРОСТКУ НУЖНО ВНИМАНИЕ

Летние каникулы в самом разгаре. Подростки в этот период могут научиться какому-нибудь ремеслу, которое пригодится им в будущем. К тому же это одна из эффективных форм организации свободного времени ребят.

В данном направлении сотрудниками ОВД Нукусского района во взаимодействии с рядом предприятий осуществляется целенаправленная работа.

Отметим, что в районе в минувшем году было совершено два преступления с участием несовершеннолетних – связанное с ДТП и кража, 5 несовершеннолетних поставлены на профилактический учет из-за девиантного поведения. В результате предпринимаемых мер в текущем году совершения подростками противоправных деяний не допущено. Однако два несовершеннолетних все же поставлены на учет.

– Профилактика правонарушений, изменение поведения трудных подростков в лучшую сторону, не дать им оступиться в начале жизненного пути – важнейшая задача нашей деятельности, – говорит инспектор-психолог по вопросам несовершенно-



летних ОПП ОВД Нукусского района майор Назира Турдимуратова. – Недавно жительница района обратилась с заявлением, просила оказать помощь. Ее дочь, учащаяся про-

фессиональной школы, не приходит домой. Мы опросили родственников и друзей несовершеннолетней, выяснили, что она отправилась работать в город Нукус. Девочку нашли,

привезли домой. В ходе беседы она сказала, что устала от скандалов, регулярно возникающих между родителями, хочет жить в благополучной семье. Со слов девочки, после ссор

мать часто срывалась на ней. Провели профилактическую беседу с родителями, а к индивидуальной работе с несовершеннолетней привлекли психолога. Учитывая интерес девочки к швейному делу, я отвела ее к Узилдик Калниязовой, индивидуальному предпринимателю, которая занимается пошивом одежды, попросила научить ремеслу... Усилия не прошли даром. Недавно девочка сама пришла ко мне, не скрывая радости, повторяла, что многому научилась у наставницы, поделилась планами – будет поступать в вуз. Так что каждый подросток нуждается прежде всего во внимании.

Для справки. В школах района в настоящее время организовано порядка 20 кружков, обучающих азам того или иного ремесла. В летний период они способствуют содержательной организации свободного времени подростков.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.

■ Самаркандская область

НЕ «ВЫПАСТЬ» ИЗ ОБЩЕСТВА

Один из последних выездных судов прошел в Ургутском районе. По решению районного суда по уголовным делам в этот день 23 поднадзорных, находившихся на пути к исправлению, были условно-досрочно освобождены от отбывания наказания. Троим поднадзорным, заведомо уклонявшимся от отбывания срока, мера наказания была заменена на более суровую.

Основная цель службы пробации – не просто контролировать исполнение наказаний, но и создать условия для того, чтобы человек повторно не совершил ошибку, дать ему шанс исправиться.

Служба пробации осуществляет важнейшие задачи и функции по исправлению лиц, осужденных к наказаниям, не связанным с лишением свободы, содействию в их социальной адаптации и предупреждению совершения повторных преступлений, сокращению рецидивной преступности.

Как только человек по решению суда «попадает» в службу пробации, сотрудники проводят с ним беседу, разъясняют права и обязанности, порядок отбывания наказания, составляется индивидуальная программа оказания

С начала года в Самаркандской области прошло 87 выездных судов с участием лиц, состоящих на учете службы пробации. По итогам судов в отношении 39 граждан мера наказания была ужесточена, а в отношении 462 осужденных в соответствии со ст. 73 УК Республики Узбекистан применено условно-досрочное освобождение от отбывания наказания.



социально-правовой помощи, план пробационного надзора.

– Нужно проявлять высокий уровень профессионализма, но нельзя забывать о гуманности, – говорит инспектор по особо важным поручениям Управления пробации СОБ УВД Самаркандской области майор Нодир Каримов. – Человек не должен «выпасть» из общества. В то же время следует проявлять выдержку, так как целью пробации является изменение поведения человека, формирование законопослушного поведения.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.





Tijihat yurida

ЙЎЛГА ҚИЁСЛАНАР ГОҲИДА УМР...

Гоҳида инсон умрини йўлга қиёслашади. Бу бежиз эмас. Чунки ҳар бир киши маълум ёшга етганидан кейин ортга назар ташлайди. У беихтиёр босиб ўтган умр йўлини сарҳисоб қилади. Мана шундай лаҳзаларда ёшларга илм берган, уларнинг орзу-мақсадлари амалга ошишида қанот бўлганларнинг юзларида мамнунлик акс этиши шубҳасиз.

Қутлуғ 70 ёшни қаршилаётган етук олим, кўплаб шогирдларнинг севимли устози, сиёсий фанлар доктори, профессор, истеъфодаги полковник Шухрат Фойибназаровнинг ҳаёт йўлига назар ташлар эканмиз, ана шундай фикрлар ҳаёлимиздан ўтади. Бундай фидойи инсонларнинг ҳаёт йўли кўплаб ёшлар учун ўзига хос ибрат мактаби вазифасини бажаради. Ш. Фойибназаров мамлакатимиз олий таълим тизимида самарали меҳнат қилиб, ўз билими ва тажрибасини талаба ва курсант ёшлар билан баҳам кўриб келмоқда.

Ёшлигидан китобга, илмга, тарих, ҳуқуқ фанларига қизиққан қаҳрамонимиз 28 ёшида фан номзоди илмий даражасига эга бўлган. 39 ёшида докторлик диссертациясини муваффақиятли ёқлаган ва мамлакатимиз сиёсатшунослик соҳасида илк фан докторларидан бўлди. Олим монография ва рисолалари, ўқув дарсликлари ҳамда қўлланмалари, ўзимизда ва хорижда нашр этилган 200 дан зиёд мақолалари билан танилди. Ҳаётини илм-фанга бағишлаган устоз ўтган йиллар давомида ўнга яқин шогирдларининг илмий ишларига раҳбарлик, кўплаб диссертацияларга расмий оппонентлик қилиб, фанимиз ривожига ўз ҳиссасини қўшиб келяпти.



ИИВ Академияси бошлиғининг маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари, кафедра бошлиғи лавозимларида хизмат қилган Ш. Фойибназаровнинг «Академия тингловчиларининг маърифий тарбияси низоми», «Тингловчиларнинг касб одобномаси», «Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясида маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш» рисолалари ва илмий-услубий ишлари таълим даргоҳида тарбиявий ишларни тизимли олиб боришда ўзига хос ўрин тутди. Профессор-ўқитувчилар ва тингловчиларнинг сиёсий онги ва сиёсий маданияти юксалишига ҳамда Академия шахсий таркибини замонавий талаб ва мезонларга мос равишда тарбиялашга муҳим ҳисса бўлиб қўшилди.

Шу ўринда айтиш лозимки, Ш.Фойибназаров тахририятимизнинг фаол муаллифларидан, ижодий ҳамкорларидан ҳисобланади. «Postda–Ha postu» газетасида чоп этиладиган Маънавият ва маърифат дарслари мавзулари бўйича мазмунли мақолалари муштарийларимизга манзур бўлмоқда. Ҳозирги кунда Г.Плеханов номидаги Россия иқтисодиёт университети Тошкент филиали директори ўринбосари сифатида ҳам фаолият олиб бориб, мамлакатимизга олий малакали иқтисодчи кадрлар тайёрлаш ишларига муносиб ҳисса қўшиб келмоқда.

Ш. Фойибназаровнинг аҳил оиласига кўпчилик ҳавас қилади. Умр йўлдоши Юлдузхон опа узоқ йиллар Олий Мажлис Қонунчилик палатасининг Ишлар бошқармасида фаолият юритиб, айна кунда фарзанду неваралари қуршовида кексалик гаштини сурмоқда. Ўғли Нодир тадбиркор, қизи Дилафрўз Тошкент давлат иқтисодиёт университети корпоратив бошқарув факультети декани ўринбосари, иқтисодиёт фанлари доктори. Кичик қизи Лола эса банк ходими.

Айни кунда Ш. Фойибназаровнинг кўплаб шогирдлари юртимиз осойишталигини таъминлаш йўлида ҳуқуқ-тартибот органларида, ёш авлодни илму урфон сирларидан баҳраманд этиш мақсадида мамлакатимиз таълим масканлари ва бошқа нуфузли ташкилотларда фаолият олиб боришмоқда. Фурсатдан фойдаланиб, биз ҳам жонқуяр устоз, истеъфодаги полковник Шухрат Фойибназаровни табаррук 70 ёши билан қутлаб, унга узоқ умр, сиҳат-саломатлик тилаб қоламиз.

Шерзод АБДУСАМАДОВ,
ўз мухбиримиз.



Yoshlar – kelajak bunyodkori

ОТА-ОНАСИ UNДАН MINNATDOR

Bolalar yoz fasli kelishini orziqib kutishadi. Boisi bu mavsumda ular miriqib dam olishadi. «Zarafshon» oromgohida ayni paytda 500 nafardan ortiq bolalar hordiq chiqarishmoqda. Ular orasida ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlari ham bor. Shu kunlarda mazkur oromgohga jalb qilingan leytenant Nursulton Eshimov bolalar-nining nafaqat jismonan chiniqishi, balki ruhan dam olishlarini ta'minlashga ham o'z hissasini qo'shmoqda.



– Bu yerdagi bolalar Tomdi, Uchquduq tumani hamda Zarafshon va Navoiy shaharlaridan kelishgan. Ular orasida o'zbek, qozoq, qoraqalpoq va rus millatiga mansub bolalar bor. Har birining fe'l-atvori turlicha. Dam olish jarayonini qiziqarli, mazmunli va foydali tashkil etish, shuningdek, ahillik, hamjihatlikni ta'minlash uchun turli sport o'yinlari, noodatiy mashg'ulotlar tashkil etyapmiz. Oromgohga birinchi marotaba kelayotgan hamda tortinchoq, jizzaki bolalar bilan alohida psixologik suhbatlar olib boryapmiz. Ularning boshqa tengdoshlariga qo'shilib ketishi va maroqli dam olishiga ko'maklashyapmiz, – deydi leytenant Nursulton Eshimov.

Leytenant N. Eshimov Tomdi tumani IIB JXX HPB voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixologiy vazifasida xizmat qilayotganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Ammo uning o'rta



maktabda pedagog sifatida faoliyat olib borgan ayni kunlarda qo'l kelmoqda.

Tomdi tumanida 1200 nafardan ortiq voyaga yetmaganlar bo'lib, bir yil oldin ulardan 6 nafari profilaktik hisobda turardi. Muntazam targ'ibot ishlari olib bordi, mahalla faollari va ota-onalar bilan ishladi. Bolalar bilan individual suhbatlar tashkil etdi, ularni foydali mashg'ulotlarga yo'naltirdi. Buning natijasida profilaktik ro'yxatdagilar soni kamayishiga erishildi.

«Tomdibuloq» ovul fuqarolar yig'inida istiqomat qilayotgan Ersen (ismlari o'zgartirildi) ko'p bolali oilada kenja farzand. Otasining uzoqdaligi, onasining mavsumiy ishda ishlashi bolaning qarovsiz qolishiga sabab bo'lgan. Shu boisdan maktabda o'rtoqlariga qo'shilolmay, sal narsa-

ga jahli chiqib janjallashadigan odat chiqardi. Leytenant Nursulton Eshimov o'quvchi bilan alohida suhbatlar o'tkazdi. Uni qiynayotgan muammolarni hal etish ustida mutaxassis sifatida ishladi. Bir so'z bilan aytganda, Ersenning ko'ngliga yo'l topib, yaqin do'stiga aylandi. Sa'y-harakatlar o'z samarasini ko'rsata boshladi. Bolaning o'qishlari yaxshi tomonga o'zgardi. Hozir u Zarafshon shahridagi kasb-hunar maktabida chilangarlik kasbini o'rganmoqda. Kelgusida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida o'qishni davom ettirmoqchi. Uning ota-onasi Nursulton Eshimovdan juda minnatdor.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

Женщины в погонах

СТАТНАЯ И УЛЫБЧИВАЯ ШАХЛО

Статная, улыбчивая красавица в погонах старший лейтенант Шахло Давирова знает – приступать к службе надо в хорошем настроении. Наверное, в этом и ее секрет. Все каждодневные обязанности она выполняет ответственно, образцово, профессионально.

Шахло Давирова родилась 21 января 1987 года в Ахангаранском районе Ташкентской области. Школьные годы были наполнены не только учебой, но и занятиями спортом. Наша героиня хорошо помнит, кто оказал влияние на то, что она активно начала заниматься единоборствами. Дело в том, что в общеобразовательной школе №1, где она обучалась, секцию по таэквондо ITF вела чемпионка мира Алевтина Ким, которая, занимаясь с ребятами, подавала личный пример – покоряла пьедесталы престижных состязаний. Отец Шахло, Хуснитдин Давиров, восхищаясь тренером, привел дочь в 12-летнем возрасте в секцию Ким. С тех пор девушка не представляет своей жизни без спорта.

– Физические нагрузки воспитали во мне такое ценное для нынешней работы качество, как дисциплинированность. А это – отсечение всего лишнего, – говорит Шахло Давирова.

Не прошли даром упорные тренировки. В скором времени девушка станет многократной чемпионкой Азиатских игр, победительницей республиканских турниров. Также

займется кикбоксингом, завоеует титулы чемпионки мира, неоднократной чемпионки Азии по данному виду единоборств. Выступая в составе сборной Узбекистана, выполнит нормативы кандидата в мастера спорта. Станет

Черта, присущая Шахло, – требовательность к себе и к окружающим. Она никогда не останавливалась на достигнутом, постоянно самосовершенствовалась. Девушка стремилась к личностному росту. Когда пришло время опре-



обладательницей черного пояса. Ее дальнейшие тренировки будут проходить под руководством тренера Пулата Усманова.

Ш. Давирова обучалась в Узбекском государственном университете физической культуры и спорта. С большой самоотдачей она продолжала участвовать в различных спортивных мероприятиях, приумножая победы.

делиться с профессией, выбрала правоохранительную линию.

В 2006 году Ш. Давирова поступила на службу в Школу первоначальной подготовки в городе Алматы.

С 2013 года героиня очерка продолжает службу в Академии МВД Республики Узбекистан. В 2019 году она поступила на факультет заочного



обучения, осуществила свою мечту стать юристом.

Так как Шахло являлась спортивной девушкой, ей хотелось службой в органах внутренних дел реализовать себя. В ее видении сотрудник должен быть физически развитым, дисциплинированным.

В марте 2021 года Ш. Давирова приступила к новой для нее должности. Ее назначили командиром отряда девушек учебно-строевой части Академии. И вновь наша героиня сумела проявить себя как ответственный сотрудник, на которого можно положиться. За успехи в службе в марте 2023 года она была награждена нагрудным знаком «A'lo xizmatlari uchun».

– Шахло Хуснитдиновна достаточно жесткий командир, способный принимать непростые решения. При этом ее отличает терпеливость, проявление искренней заботы о личном составе отряда, – делится выпускница Академии МВД лейтенант Ксения Попова.

Ш. Давирова признается, что у нее обостренное чувство справедливости. Она всегда рада помочь девушкам, находящимся под ее руководством, но дисциплина – на первом месте.

– Она терпеливая, трудолюбивая, собранная и настойчивая в достижении поставленных задач. Учила нас уважительному отношению друг к другу, сплоченности, взаимовыручке, быть готовыми оказать помощь и поддержку в трудную минуту, – делится выпускница Академии МВД лейтенант Диёра Рахимбергенова.

По большому счету, героиня этой публикации именно из тех целеустремленных и надежных людей Академии МВД, для которых призвание определяет и образ жизни, и судьбу.

Сама же Шахло утверждает: отчего она точно не устает, так это от службы. А потому все у нее еще впереди!

Азиза БОХОДИРОВА,
капитан.

«ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНИЦЫ ТУМАРИС»



Наталья КОНДРАТЬЕВА,
начальник Центра контроля и мониторинга качества образования Академии МВД Республики Узбекистан, подполковник:

– К участию в состязаниях «Последовательницы Тумарис» команда Академии готовилась основательно. Девушки соревновались в эстафетном беге, стрельбе из автомата Калашникова и пистолета Макарова, совершали заплыв на дистанцию 50 метров, показали навыки оказания неотложной медицинской помощи раненому, приготовления блюд в полевых условиях. Наша сценическая постановка, посвященная героизму Тумарис, вызвала овации участников и зрителей мероприятия. Результат – мы лидеры!

Соперники были достойные. Состязания проходили насыщенно и динамично, в духе непримиримой борьбы за победу.



Хулкар МУХАММАДИЕВА,
инспектор по вопросам женщин ОПП СОБ ОВД № 5 УВД ОВД города Самарканда, старший лейтенант:

– В номинации по оказанию первой медицинской помощи раненому заняла первое место. В этой победе во многом обязана педагогам из медицинского колледжа, который окончила в 2014 году. Буквально за несколько секунд нужно было наложить условно раненому жгут-турникет для остановки кровотечения, соблюдая при этом все правила. Я справилась за 7 секунд.

Для меня участие в данных состязаниях – возможность продемонстрировать свои способности в спорте, в обращении с огнестрельным оружием и даже в актерском мастерстве.

Республиканский этап соревнований «Последовательницы Тумарис» запомнится участницам и культурной программой. Был организован тур по историческим местам легендарного Самарканда, древние памятники которого не могут не восхищать его гостей.



Tuman IIBda

MAQSAD BIR, HARAKAT MUSHTARAK

Joriy yilning o'tgan davrida Bog'ot tumani hududida 74 ta jinoyat sodir etilgan bo'lib, ularning 43 tasi jinoyat qidiruv yo'nalishida, 15 tasi iqtisodiy, 16 tasi esa boshqa sohalarga oid jinoyatlardir. Osoyishtalik posbonlarining sa'y-harakatlari bilan aniqlangan jinoyatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ular giyohvandlik, fohishaxona tashkil etish, noqonuniy qurol saqlash, taqiqlangan ekinlarni yetishtirish, pora olish, valyuta bilan bog'liq ekani oydinlashadi.

Giyohvandlikka qarshi kurashish borasida tezkor profilaktik tadbirlar o'tkazilayotganiga qaramay, ushbu turdagi jinoyatlarning sodir etilishi davom etyapti. Afsuski, ushbu vositalarni ekish, tashish, sotish, tarqatish kabi og'ir jinoyatlarni sodir etayotganlar orasida ayollarni ham uchratish mumkin.

Bog'ot tumanida yashovchi S.Karomat (ism-sharifi o'zgartirildi) tarkibida giyohvandlik vositasi bo'lgan o'simlikni ekib, yashirin ravishda parvarishlab kelgan. Ayolning bu qilmishidan xabar topgan xodimlar uning xonadoniga borib, tomorqasini belgilangan tartibda ko'zdan kechirishdi. Natijada xonadon sohibasi 64 tup ko'knor o'simligini parvarishlayotgani ma'lum bo'ldi.

Mahallalarda o'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlarida o'g'rilik, giyohvandlik, firibgarlik, odam savdosi kabi jinoyatlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, aholi xonadonlari va tadbirkorlik obyektlarining xavfsizligini ta'minlashda qo'riqlash xizmatidan foydalanish, uy-ro'zg'or buyumlari va qoramollarni qarovsiz qoldirmaslik bo'yicha profilaktik-tushuntirish ishlari olib borilyapti.

– Sodir etilgan har bir jinoyat o'sha mahallaning o'zida keng jamoatchilik vakillari ishtirokida ochiqchasi-ga muhokama qilib borilyapti, – deydi tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Ergash Ahmedov. – Mas'ul



shaxslarning, mahalla ahlining fikr-mulohazalari, taklif va istaklari tinglanib, kelgusida nimalarga e'tibor qaratish lozimligi belgilab olinmoqda.

Aholining turmush tarzini o'rganish jarayonida ehtiyojmand, nizoli oilalar, ishsiz fuqarolar, ichki-likbozlikka ruju qo'ygan, jinoyat so-



vaziyat tahlil qilinib, ularning 4 tasi «qizil», 5 tasi «sariq» va 34 tasi «yashil» toifaga ajratilgan. «Qizil» hududga kiritilgan, kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan va jinoyatlar soni oshgan mahallalarda barqaror muhitni ta'minlash maqsadida sohaviy xizmatlar bilan hamkorlikdagi tezkor-profilaktik tadbirlar jadal davom etmoqda.

Tumanda tashkil etilayotgan mehnat yarmarkasida o'nga yaqin korxona va tashkilotlar o'zlaridagi mavjud bo'sh ish o'rinlari bilan ishtirok etib, sektor hududida yashovchi ishsiz yoshlarning 108 nafarini ishga joylashdi. Shuningdek,



dir qilishga moyil bo'lgan va boshqa toifadagi shaxslar aniqlanib, ular bilan profilaktik suhbatlar olib borilmoqda. Ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash, imtiyozli bank kreditlari ajratish orqali tadbirkorlikka jalb qilish choralari ko'rilyapti. «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyili asosida 43 ta mahalladagi

«Yoshlar daftari»da ro'yxatda turgan, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish istagida bo'lgan yigit-qizlarga imtiyozli bank kreditlari olish bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.





Аёл ва жамият

ЯҚИН ДЎСТ, ИШОНЧЛИ ҲИМОЯЧИ

...Эрталаб ишга отланган подполковник Сайёра Умартаева маҳалладаги уйлардан бирининг эшиги олдида йиғлаб турган келинчакка кўзи тушди. Ёнига бориб, ундан ҳол-аҳвол сўради. Хизмат кийимидаги ходимни кўрган келинчак дарров йиғини тўхтатиб, арзимаган оилавий муаммоси борлигини, уни уйдагилари билан ўзаро келишиб олишини айтди. Бу гапларга ишонмаган подполковник келинчакни маҳалла биносига таклиф қилиб, у билан дилдан суҳбатлашди. Шундан кейингина кўнглини очган аёл қайнонаси узоқ вақтдан бери ўғли ишга кетиши билан уни кўчага ҳайдаб, онасиникига кетишини талаб қилаётганини билдирди.

Гап нимадалигини тушуниб етган С. Умартаева дарҳол маҳалла фаоллари билан бирга, келинчак яшайдиган хонадонга борди. Олиб борилган тушунтиришлар натижасида орадан кўп ўтмай, қайнона келини билан олдингидек тинч ҳаёт тарзига қайтди.

Бу каби воқеалар Янгийўл тумани ИИБ ХПБ хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори, подполковник Сайёра Умартаеванинг фаолиятида тез-тез учраб туради. Жорий йилнинг дастлабки 6 ойида унинг саъй-ҳаракатлари билан ажрим ёқасидаги 94 та оиланинг сақлаб қолингани лавҳамиз қаҳрамонининг ўз касбига бўлган юсак салоҳиятидан далолатдир.

Худудда истиқомат қилаётган кўп минг сонли хотин-қизларнинг ҳақ-ҳуқуқлари ва

қонуний манфаатларини таъминлашда подполковник С.Умартаеванинг хизмати бекиёс, – дейди туман ҳокими ўринбосари – оила ва хотин-қизлар бўлими бошлиғи Н.Нормирзаева. – У аёлларнинг яқин дўсти, ишончли ҳимоячисига айланган, десак, асло муболаға бўлмайди.

Вилоят ИИББ, прокуратура ҳамда туман ҳокимлиги билан ҳамкорликда «Хотин-қизларни эъзозлаш ҳафталиги» ташкил этилиб, унинг доирасида турли мавзулардаги семинар-тренинглари ўтказилди. Шунингдек, жазони ижро этиш муассасасидан озод этилган, пробация бўлими рўйхатида турган ҳамда илгари судланган шахсларни ишга жойлаштириш борасида меҳнат ярмаркалари ўтказилиб, 65 нафар хотин-қиз иш билан таъминланди. Аёлларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш мақсадида бир неча аёлга ҳимоя ордерлари берилди.

– Гендер тенглик таъминланиб келинаётган бугунги кунда юртимиздаги барча соҳалар қатори, ички ишлар органлари тизимида ҳам ёш ходималар кўпчилигини ташкил этмоқда, – дейди С.Умартаева. – Шу боисдан, уларга доимо касбига содиқ қолиб, унинг қийинчиликларини сабот билан енгиланиши, оилада эса барча ҳавас қиладиган намунали бека бўлишини талаб қоламан.

Михли САФАРОВ,
«Postda» мухбири.

Тошкент вилояти.



Фахрийлар сафда

ЎЗИМИЗНИНГ ОҚСОҚОЛ

Бугунги кунда республикамиздаги кўплаб маҳалла фуқаролар йиғинларига ички ишлар органлари фахрийлари раислик қилиб келмоқда. Маҳаллалар ободлигини, аҳоли фаровонлигини таъминлаш, тинчлик ва осойишталикни сақлашда уларнинг кўп йиллик ҳаётий тажрибаси муҳим аҳамият касб этаётгани ҳам бор гап. Ана шундай фидойи инсонлардан бири – тизимда чорак аср самарали хизмат қилган истеъфодаги подполковник Шухрат Жўраевдир.



Қамаши туманида туғилиб ўсган Шухрат Жўраев халқимиз мустақилликни қўлга киритган йили Қашқадарё вилояти ИИБ ЖИЭБ бошлиғининг ишлаб чиқариш бўйича ўринбосари лавозимида хизматни бошлаган. Хизмат фаолияти давомида жазони ижро этиш соҳасида маҳкумларни фойдали меҳнатга жалб этиш, ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятини кенгайтириш йўлида самарали меҳнат қилиб, 2017 йилда иззат-икром билан пенсияга чиқди.

Тиниб-тинчимас фахрий уйда ўтириб қолмади. Ўзи истиқомат қиладиган Мирзо Улуғбек номидаги маҳалла фуқаролар йиғи-

нида низоли оилаларни яраштириш, фуқароларнинг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш ишларида фаол қатнашди. Шу сабаб ўтган йили бўлиб ўтган маҳалла раислари сайловида фуқаролар ўзлари яхши биладиган Шухрат Жўраевни бир овоздан раисликка сайлашди.

Раис 2477 нафар аҳоли истиқомат қиладиган маҳаллада истиқомат қилувчи ҳунарманд ва тадбиркорлар, паррандачилик ва деҳқончилик билан шуғулланадиган фуқароларни бир жойга тўплади. Кимда қандай имконият ва иш ўрни борлигини ўрганиб чиқди. Натижада бир неча фуқаронинг бандлиги

таъминланди. Шу билан бирга, «Аёллар дафтари»даги хотин-қизлардан 6 нафарига тадбиркорликни йўлга қўйишига амалий ёрдам берилди. «Ёшлар дафтари»га киритилган 20 нафар йигит-қизнинг айримларига субсидия ва кредит асосида иш қуроли олиб берилган бўлса, бир нафарига тадбиркорлик учун кредит, уч нафарига ҳарбий мажбурият тўлови учун пул маблағи ажратилди.

Худуд осойишталигига масъул 44/6-сонли ҳуқуқ-тартибот маскани профилактика инспектори, лейтенант Жавоҳир Алихонов ҳар ишни маҳалла раиси, истеъфодаги подполковник Шухрат Жўраев билан бамаслаҳат қилишга одатланган.

Ҳуқуқбузарликлар ва жиноятларни живоллашда унинг тавсия ва маслаҳатларига таянади.

Шухрат Жўраев бугун ҳам халқ осойишталиги, эл тотувлиги йўлида илғорлар сафида. Асосийси, одамлар уни «ўзимизнинг оқсоқол» дея ҳурмат қилади, маслаҳатларига қулоқ тутаяди. Бу, ўз навбатида, келгусидаги хайрли ишларида унга ишонч, куч-қувват бағишлайди.

Содиқ РАҲИМОВ,
ўз мухбиримиз.

Қашқадарё вилояти.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz



Международное сотрудничество

Представители Департамента исполнения наказания МВД Республики Беларусь посетили Узбекистан. Цель визита – обмен опытом в сфере исполнения наказаний, связанных с лишением свободы, а также изучение особенностей производственно-хозяйственной деятельности учреждений Департамента исполнения наказания при МВД Узбекистана.



В ходе встречи стороны обсудили вопросы дальнейшего расширения двустороннего сотрудничества.

Делегация ознакомилась с условиями содержания осужденных, их трудовой занятостью, спецификой организации

производственной деятельности колоний по исполнению наказания.

По итогам визита представители Департамента отметили результативность реформ, осуществляемых в пенитенциарной сфере, эффективность

мер по модернизации производственных площадок УИН, направленных на создание рабочих мест для лиц, лишенных свободы.

Шахризод ШОКИРОВ,
старший лейтенант.



■ Ферганская область

СОВЕТЫ НАСТАВНИКА

В Ферганской области многие сотрудники хорошо знают подполковника Абдурасула Метина. В какое бы подразделение он ни пришел, его приветствуют словами «Здравствуйте, учитель».

Родился и вырос А. Метин в селении Миндон Ферганской области.

– Начал работу в 1991 году в авторемонтной мастерской хозяйственного отдела УВД Ферганской области слесарем. Если человек искренне к чему-то стремится, он обязательно добьется своего. В 1993 году меня приняли на службу милиционером-водителем данного отдела.

Минуло 30 лет. В течение этого времени Абдурасул ака благодаря преданности профессии, постоянной работе над собой, организаторским способностям прошел путь от рядового инспектора до начальника управления.

– Профессиональное становление невозможно без наставников, – подчеркивает начальник отдела организации дежурных служб Организационного управления УВД области подполковник А. Метин. – Своими учителями считаю полковников Толибжона Зоки-

рова, Гуломжона Боборахимова, Аминжона Тошхужаева и других, которые щедро делились опытом. Я всегда следовал их наставлениям.

Наставники способствуют личностному и профессиональному

росту молодых сотрудников. Подполковник А. Метин настойчиво, требовательно и терпеливо обучает учеников, подает пример ответственности за порученное дело,



Подполковник А. Метин (слева) со своим учеником старшим лейтенантом Ф. Камоловым.



стремления к постоянному самосовершенствованию. Его уважают за глубокие знания, опыт, верность служебному долгу.

– В любой сложной ситуации мы можем обратиться к наставнику, он обязательно даст дельный совет. Горжусь, что служу плечом к плечу с таким человеком, искренне любящим свою профессию, что являюсь его учеником, – отмечает старший дежурный инспектор дежурной части УВД области старший лейтенант Фуркатжон Камолов.

Абдусит СИДИКОВ,
соб. корр.





Ijtimoiy himoya

ENDI MENING O'Z UYIM BOR

— deydi katta serjant Sardor Rahimov

Katta serjant Sardor Rahimov Toshkent shahar Olmazor tumani IIOFMB JTSP PPX otryadida faoliyat olib boradi. Qariyb 15 yildan buyon sohada xizmat qilib kelayotgan xodimning uy-joyga ehtiyoji bor edi. Shu sabab u qonunchilikda ko'rsatilganidek imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari asosida turarjoy sotib olish (qurish) uchun kerakli hujjatlarni rasmiylashtirib, Toshkent shahar IIBB komissiyasiga taqdim etdi. Komissiya tomonidan hujjatlar o'rganilib, unga 25 foizli boshlang'ich badal puli to'lanadigan bo'ldi. Shu tariqa u Toshkent shahrida yangi qurilayotgan ko'p qavatli turarjoy binosidan xonadon sotib olishga muvaffaq bo'ldi. Yaqinda ushbu uy foydalanishga topshirilish arafasida.

— Shu sohada ishlayotganimdan faxrlanaman, — deydi, katta serjant Sardor Rahimov. — Chunki mehnatimga munosib rag'bat bo'lyapti. Xizmatda barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Uy-joy olishim uchun ko'mak berildi. Yangi qurilgan xonadon sohibi bo'lganimdan baxtiyorman. Shu paytgacha ota hovlida men, turmush o'rtog'im, 3 nafar farzandim ukamning oilasi bilan birga



Suratda: katta serjant Sardor Rahimov (o'ngda) hamkasbi mayor Sobir Rejabov bilan.

yashab kelayotgan edik. Endi mening ham alohida uyim bo'ladi. Bunday g'amxo'rlik uchun Prezidentimizga hamda IIV rahbariyatiga minnatdorlik bildiraman. Ularning

ishonchini oqlab, Vatanimga sadoqat bilan xizmat qilishga va'da beraman.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.
Toshkent shahri.



Har bir inson o'z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas.

Inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart.

Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasining 21-moddasi.**



Yoz — o'tmoqda soz!

«ASAKA»DA MAROQLI TA'TIL



Suratda: katta leytenant Doniyordek Hasanov bolalar davrasida.

Asaka tumanidagi «Niyoz Botir» hududida qushlarning yoqimli xonishi eshitilib turadigan soya-salqin daraxtzorlar orasida O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalariga qarashli «Asaka» bolalar sog'lomlashtirish oromgohi joylashgan. Bu yerda uch smenada Andijon shahri, Marhamat, Asaka tumanlari va Farg'ona viloyatining tumanlaridan kelgan qariyb uch yuz nafar bola dam olib, salomatligini mustahkamlaydi va jismonan chiniqadi.

— Bolalarning yayrab, mazmunli dam olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan, — deydi oromgoh direktori, iste'fodagi podpolkovnik Inomjon Teshaboyev. — Bu yerda kutubxona, sport maydonchalari, suzish havzasi, kompyuter savodxonligi xonasi, yo'l

harakati xavfsizligi burchagi, shaxmat, shashka, mini-futbol, voleybol seksiyalari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Qizlar uchun bichish-tikish va pazandalik to'garaklari tashkil qilingan.

Oromgohda bolalar uchun yugurish, sakrash, raqs bo'yicha tashkil etil-

gan sport va harakatli o'yinlar sog'liqni yaxshilashning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Qolaversa, harakatli o'yinlar bolani jismonan rivojlantirish usullaridan biridir.

G'oyalarni amalga oshirish ko'p jihatdan yetakchilarga bog'liq. Bular asosan Andijon davlat universiteti talabalaridir. Iqtidorli va ijodkor yetakchilar bolalar ham o'qib-o'rganishi, ham maroqli vaqt o'tkazishi mumkin bo'lgan ko'ngilochar muhitni yaratishadi. O'yinlar ijtimoiylashuvga yordam beradi, ular bugungi kun bolalari uchun qiziqarli, shuningdek, ajoyib g'oyalar

dunyosiga g'arq bo'lishga imkon beradi. Bu ko'pgina ko'nikmalar hosil qilish, o'zini o'zi qadrlash va o'ziga ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bolalarning deyarli bo'sh vaqti yo'q. Har kuni oromgoh tarbiyalanuvchilari o'rtasida «Quvnoq startlar», «Ertaklar olamida», «Allo, biz iste'dodlarni izlayapmiz», «Eng yaxshi kitobsevar», «Yo'l harakati qoidalarini bilimdonlari» kabi turli tanlovlar o'tkaziladi. Bolalar to'rt mahal issiq ovqat bilan ta'minlangan, dasturxonga ko'plab sarxil sabzavot va mevalar tortiladi. Bir smena 12 kun davom etadi. Bu vaqt ichida tarbiyalanuvchilar bir qator do'stlar orttirgani bois sog'lomlashtirish oromgohida qiziqarli taassurotlarga boy kunlarni uzoq vaqt davomida unuta olishmaydi.

— Bolalar oromgohida jamoat tartibini inspektor-psixologlar ta'minlaydi, — deya suhbatga qo'shildi Asaka tumani IIB huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha guruhi katta inspektor-psixologi, mayor O'tkirbek Xolmirzayev. — Ular kecha-yu kunduz bolalar orasida bo'lib, profilaktik suhbatlar olib borishadi, belgilangan vaqtda yo'l harakati xavfsizligi maydonida o'yin shaklida musobaqalar tashkil etishadi.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.



Dolzarb
mavzu

KIBERJINOYATCHILIK

uning xavfi nimada?

Bugun tezkor davrda yashayapmiz. Jinoyatchilikka qarshi kurash va uning oldini olishda ilg'or kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy axborot qurilmalari amaliyotga keng joriy etilyapti. Bu, o'z navbatida, jinoyatchilikni jilovlash bilan bir qatorda, soha xodimlariga qulayliklar yaratmoqda. Shunday bo'lsa-da, so'nggi yillarda kiberjinoyatchilik avj olyaptiki, ko'plab insonlar ushbu turdagi jinoyatlar jabrdiydalariga aylanmoqda.

Xo'sh, kiberjinoyatchilikning o'zi nima? U bugungi kunda qay ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda? Kiberjinoyatchilik va u bilan bog'liq shu kabi boshqa savollarga javob topish maqsadida Ichki ishlar vazirligi Tezkor-qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazining Targ'ibot bo'limi boshlig'i, mayor Lochinbek Atoev bilan suhbatlashdik.

– Garchi, nashrlarimizda oldin ham bu mavzuga to'xtalgan bo'lsak-da, mushtariylarimizga kiberjinoyatchilik haqida qisqacha ta'rif berib o'tsangiz.

– Vaqt o'tgani sari, har bir davrga mos tarzda jinoyatchilik ham o'zgarib, uning yangi turlari paydo bo'la-veradi. Kompyuter texnologiyalari, raqamli qurilmalar hayotimizga keng kirib kelgan hozirgi kunda jinoyatchilar ham o'z jinoiy faoliyatida ulardan foydalanib, yangi turdagi kiberjinoyatlarni sodir etmoqda.

«Kiberjinoyatchilik» tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi «Kiberxavfsizlik to'g'risida»gi qonuni 3-moddasida shunday ta'rif berilgan: «Kiberjinoyatchilik – axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisi».

– Kiberjinoyatchilik asosan kibermakonda sodir etiladi. Demak, bu bo'yicha mutaxassis sifatidagi fikrlaringiz muhim...

– Kibermakon – axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan virtual muhit. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: yangi texnologiyalar davrida keng qo'llanilayotgan «virtual» so'zini qanday tushunish mumkin? Bu bo'yicha mutaxassislarning fikriga tayanadigan bo'lsak, virtual – bu atama, mashina, kalit, xotira bo'ladimi, haqiqiy narsaning raqamli takrorlangan versiyasini anglatadi. U haqiqiydan mutlaq, jismoniy shaklga ega emasligi bilan ajralib turadi. Biroq funksional jihatdan u haqiqiy emas.

Kibermakon nafaqat internet yoki kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan ma'lumotlar almashinuvi, balki avtomatlashtirilgan tarzda boshqariladigan tizimlar mavjud bo'lgan makonni qamrab oladi. Uning real hayotdan farqi, klaviatura va sichqonchani harakatlantirishdan boshqa jismoniy harakat talab qilinmaydi.

Kiberjinoyat – kompyuter, telekommunikatsiya va boshqa tar-

moqlar orqali, kibermakonda sodir etiladigan jinoyat bo'lib, yildan-yilga oshib borishi oqibatida yetkazilgan moddiy zarar miqdori ham ko'payib bormoqda.

– Bu albatta, kishini xavotirga soladi. Kezi kelganda, yetkazilgan zararlar miqdori haqida ham ma'lumot berib o'tsangiz.



– Statista.com internet-nashri-ning bergan ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda kiberjinoyat natijasida dunyo aholisiga 7,08 trln AQSH dollari miqdorida moddiy zarar yetkazilgan. 2028-yilga borib esa, bu miqdor 13,82 trln AQSH dollarini tashkil etishi prognoz qilingan.

Internet tarmog'i foydalanuvchilari sonining oshib borishi ularning kiberjinoyat qurboniga aylanib qolishi ehtimolini oshiradi. Misol uchun, joriy yil yanvar holatiga ko'ra, dunyo aholisining 5,2 mlrd qismi, ya'ni 65 foizi internet foydalanuvchisi hisoblanadi. O'zbekistonda esa, Raqamli texnologiyalar vazirligi bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil dekabr holatiga ko'ra, aholining internet xizmatlaridan foydalanuvchilari soni 31 mln kishidan oshgani qayd etilgan.

Internet tarmog'i foydalanuvchilarining xavfsizligini ta'minlash, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish ushbu sohada xizmat olib boruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Zotan, kiberjinoyatlar soni 2000-yillardan so'ng keskin oshib bormoqda. Ya'ni, dunyo bo'yicha 2001-yilda 2055 ta

kiberjinoyat sodir etilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 1175799 taga yetgan.

Mamlakatimizda ham kibertahdidlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2020–2022-yillarda kiberjinoyat sifatida tasnif qilinayotgan holatlar 8 baravarga ortgan.

Kiberjinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari, belgilari, ijtimoiy xavflilik jihatlari qayd etish maqsadga muvofiq:

– kiberjinoyat aniq geografik hududga ega emas. Internet tarmog'ida sodir etilgani sababli uning hududini aniqlab bo'lmaydi;

– virtual makonda sodir etiladi. Kompyuter, mobil qurilmalar yordamida, internet va boshqa aloqa, telekommunikatsiya tarmoqlarida amalga oshiriladi;

– ashyoviy dalillarni «qo'l bilan ushlab, aniqlab bo'lmaydi». Raqamli

uchun ayrim rivojlangan davlatlarda ham mazkur turdagi jinoyatlarning 75 foizi ochilmasdan qolmoqda.

– Hozirgi kunda kiberjinoyatchilar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning qanday turlari bor?


– Internet tarmog'i orqali haqorat va tuhmat qilish, fishing (soxta havola) yordamida sodir etilgan jinoyatlar, onlayn do'konlar, e'lonlar saytidan foydalanib sodir etilgan jinoyatlar (olx.uz platformasida, ijtimoiy tarmoqlarda turli mahsulotlarni sotish bilan bog'liq firibgarliklar), shaxsiy ma'lumotlarni egallab, tovlamachilik yo'li bilan pul talab qilish (shaxsiy fotosuratlarini qo'lga kiritib, internetda tarqatish bilan qo'rqitish), yopiq tarmoqda taqiqlangan materiallarni tarqatish, giyohvandlik vositalarining onlayn savdosi va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin.

– Kiberjinoyatchilikning oshishiga qanday omillar sabab bo'lmoqda? Uning oldini olish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

– Birinchi navbatda, aholining kiberxavfsizlik bo'yicha savodxonligining pastligini aytilish mumkin. Shuningdek, internet orqali kiberjinoyat sodir etish uslublarini to'siqlarsiz o'rganish hamda xorijda turib, internet orqali jinoyat sodir etish imkoniyatlarining mavjudligi, bundan tashqari, axborot tizimlari kiberxavfsizlik talablariga to'liq javob bermasligi, malakali kadrlarning yetishmasligi ham bunga sabab bo'lmoqda.

Yuqorida ko'rsatilgan yangi xavflar, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish uchun butun dunyoda signalgan bir usuldan foydalaniladi, ya'ni internet va raqamli texnologiyalardan foydalanuvchi aholining bu boradagi bilimlarini oshirish, ularni yangi turdagi tahdidlardan ogohlantirish orqali jabrlanib qolishlarining oldini olish eng samarali usullardan biri bo'lib qolmoqda.

Sherzod ABDUSAMADOV
suhbatlashdi.



Kiberjinoyatchilikning jahon miqyosida o'sib borishi.





Урок духовности и просвещения

«SHARQ TARONALARI»: МЕЛОДИИ, ВОСХИЩАЮЩИЕ МИР



На благодатной земле Узбекистана, в древнем и величественном Самарканде, который во всем мире по праву называют «украшением лица Земли», вот уже на протяжении почти четверти века проводится грандиозное мероприятие – Международный музыкальный фестиваль «Sharq taronalari».

Фестиваль учрежден в целях сохранения и развития, широкой популяризации национальных музыкальных традиций, дальнейшего расширения творческих связей, воспеваания идей мира, дружбы, взаимопонимания.

Раз в два года, в конце лета Самарканд вновь и вновь собирает сотни творческих коллективов и исполнителей, подвижников искусства со всех уголков планеты, желающих представить культуру своих стран. На исторической площади Регистан, окруженной памятниками восточной средневековой архитектуры, сооружается огромная сцена под открытым небом. Здесь исполняются образцы фольклорного творчества, классические, национальные музыкальные произведения. В рамках мероприятия проходят выставки, арт-базар, научные конференции.

Сам фестиваль продолжается почти неделю, а завершает его грандиозный гала-концерт, на котором выступают побе-

дители. Под звездным небом и голубыми куполами Самарканда звучат чарующие мелодии, животворные напевы, воспевающие идеалы гуманизма, объединяющие людей.

В основу идеи фестиваля заложен завет великого Алишера Навои: «Люди мира, живите в дружбе меж собой, украсьте лик



«Sharq taronalari» проводится с 1997 года под эгидой ЮНЕСКО и патронажем Президента Узбекистана, объединяет творческие коллективы и исполнителей с разных континентов – от Марокко до США и от Финляндии до Китая. Фестиваль включен в число международных культурных мероприятий ЮНЕСКО.

земли родной своим талантом и трудом!».

Автором завораживающей мелодии гимна фестиваля является заслуженный деятель искусств, член Союза композиторов и бастаков Узбекистана Дилором Амануллаева.

Фестиваль открыл десятки ставших затем известными артистов, молодых талантливых исполнителей, дал им крылья для творческого взлета. Самое главное, он является своеобразной площадкой для диалога между разными культурами и цивилизациями, странами и народами.

Международный музыкальный фестиваль «Sharq taronalari» стал катализатором проведения Международного форума искусства макома в Шахрисабзе, Международного фестиваля искусства бахши в Термезе, Международного фестиваля народно-прикладного искусства в Коканде.

Подготовил
Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

ОБЛАДАТЕЛИ ГРАН-ПРИ ФЕСТИВАЛЯ



1997 – Симара Иманова
(Азербайджан)



1999 – Насиба Саттарова
(Узбекистан)



2003 – Ансамбль «Уранхай»
(Россия)



2009 – Ляле
Бегназарова
(Туркменистан)



2017 – Камран Керимов и Сахиб
Пашазаде (Азербайджан)



2019 – Мехринигор
Абдурашидова (Узбекистан)





Ёшлар — келажак бунёдкори

ЧЕМПИОН ЛЕЙТЕНАНТ

Кечга яқин лейтенант Сарвиноз Абдувалиеванинг телефони жиринглади. Фафур Фулом номидаги маҳалла фуқаролар йиғинининг хотин-қизлар фаоли Гулмира Эрназарова экан. У куйинганча оилавий жанжални бартараф қилиш учун ёрдам зарурлигини билдирди.

Маҳалла фуқаролар йиғинига етиб келганида, Сарвинозни маҳалла бешлиги ва тушкун ҳолатдаги бир жувон кутиб турарди. Маълум бўлишича, ҳудуддаги кўп қаватли уйда яшовчи қайнонага келиннинг муомаласи ёқмай, уйдан чиқариб юборибди.

Профилактика инспекторининг автоуловида қайнонанинг тураржойига боришди. Маҳалла фаоллари ва ички ишлар органлари ходимларини кўриб, онанинг хижолат тортгани сезилди, лекин қовоғи очилмади. Улар мезбонга оила бузилиши оқибатларини тушунтира бошладилар. Лейтенант Сарвиноз Абдувалиева эса масаланинг ҳуқуқий жиҳатларига тўхталди, хусусан, ажрим юз бергудек бўлса, алимент тўлаш ҳамда келинга яшаш жойининг бир қисмини ажратиш билан боғлиқ масала кўтарилишини гап орасида қистириб ўтди. Низо янада аланга олмаслиги учун

фикрларини босиқлик ва эҳтиёткорлик билан баён қилди.

Қисқаси, келин кечирим сўради, томонлар ярашди, ўз навбатида, профилактика инспектори жувонга бир ой муддатга ҳимоя ордери расмийлаштирди. Кўп ўтмай, ҳаммаси жойига тушди. Дўстлик тумани ИИБ ЖХХ ҚПБ хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектори, лейтенант Сарвиноз Абдувалиева эса яна бир оилани ажримдан сақлаб қолишга ҳисса қўшганидан қувонди.

Мақоламиз қаҳрамони умумтаълим мактабининг 5-синфидан бошлаб таэквондо билан шуғулланади ва яхшигина натижаларни қўлга киритмоқда. Жумладан, 2012–2018 йиллар оралиғида кетма-кет 8 марта Ўзбекистон чемпиони бўлди. 2014 йили Россия ва Марказий Осиё давлатлари таэквондочилари иштирокида бўлиб ўтган халқаро мусобақада 58 килограмм



вазн тоифасида биринчи ўринни эгаллади. Айни шу ютуқлари сабаб 2019 йили имтиёзли равишда ИИБ Академиясига ўқишга қабул қилинди. Таълим давомида ҳам спортни ташлаб қўймади, 2019 йилда яна бир бор мамлакат чемпионлигига эришди.

2022 йили хизмат фаолиятини бошлаган Сарвиноз ҳозир ҳам турли даражадаги мусобақаларда қатнашиб, ғолиблар сафидан жой олаётир. Чунончи, жорий йилнинг февраль

ойида бўлиб ўтган мамлакат чемпионатида уч рақибдан устун келиб, шоҳсупага кўтарилди.

– Март ойида Тошкент шаҳрида Марказий Осиё давлатлари таэквондочилари ўртасида ўтказилган халқаро турнирда ғолиб бўлиб, олтин медаль билан тақдирландим, – дейди спорт усталигига номзод Сарвиноз Абдувалиева. – Бу ғалаба менга август ойида Қозоғистонда бўлиб ўтадиган жаҳон чемпионатида иштирок этиш ҳуқуқи-

ни берди. Айни кунларда мусобақага қизгин ҳозирлик кўряпман.

Мақоламиз қаҳрамонининг орзулари бисёр. Хусусан, хотин-қизлар томонидан содир этилаётган ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг сабаб ва омилларини ўрганиш ҳамда олдини олиш юзасидан илмий иш қилиш ниятида. Унинг эзгу ниятига эришишига ишонамиз.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
«Postda» мухбири.
Жиззах вилояти.



Ҳалолликни ишор қилган ходимлар

ХАТО ОРТИДАН ХАТО

ёхуд профилактика инспекторига пора бермоқчи бўлган шахс хусусида

Ғиждувоннинг «Қассобон» маҳалласида яшовчи Орзиқул Бекбоев (исм-шарифи ўзгартирилди) бундан ўн уч йил муқаддам қасддан одам ўлдириш жиноятини содир этиб, ўн йил муддатга озодликдан маҳрум қилинган эди. Аммо қилмишидан тўғри хулоса чиқармади, хато кетидан хатоларга йўл қўйди. Аниқроғи, яна жиноятга қўл урди.



О. Бекбоев анчадан бери битмаган иши ҳал бўлганидан қувончи ичига сиғмай улфатлари билан маҳалла гузаридаги ошхонада «отамлашди». Даврага янги меҳмон келиб қўшилгач, спиртли ичимлик қолмагани боис савдо дўкони томон чопди.

Шу пайтда ҳудуд профилактика инспектори гузарни айланиб юрган эди. «Спарк» автомашинасидан чайқалиб, зўрға тушаётган ҳайдовчига инспектор ўзини таништириб: «Ичибсизми?» дея сўради. Шунда ҳайдовчи спиртли ичимлик ичганини тан олиб: «Йигит киши ичади-да», дея ишшайди.

Унинг хатти-ҳаракатидан шубҳаланган катта лейтенант Ф.Сафаров О.Бекбоевни Ғиждувон тумани наркология бўлимига олиб борди.

Мастлик ҳолати аниқлангач, унга нисбатан тегишли далолатнома тузилди. Автомашинаси эса вақтинчалик жарима майдонига жойлаштирилди.

Вазият жиддийлигини фаҳмлаган О.Бекбоевнинг «пайтавасига кўрт тушди». У маълум муддат автомобиль бошқариш ҳуқуқидан маҳрум бўлишини, тўлайдиган катта миқдордаги жаримани ўйларкан, вазиятдан чиқиш йўлини излади. Муаммони бартараф этиш чораси профилактика инспекторига пора бериш деган қарорга келди.

Профилактика инспектори фуқаро Орзиқул Бекбоевдан тушунтириш хати ёзиб беришни сўраган вақтида, ўзига нисбатан ҳужжатларни расмийлаштирмаслик ёки енгилроқ модда билан расмийлаштириш эвазига 2 миллион сўм пора таклиф қилди. Профилактика инспектори Орзиқулга, биринчидан, бу ҳаракати қонунга зидлигини, иккинчидан, спиртли ичимлик таъсиридан маст ҳолатдалигини

тушунтириб, эртага кайфи тарқалгач, ҳолат бўйича тушунтирмоқчилигини айтди.

Аммо эртаси куни ҳам шу ҳолат такрорлангач, ноилоҳ катта лейтенант Фирдавс Сафаров вилоят ИИБ бошлиғи номига билдирги ёзди. Унинг билдиргиси асосида ўтказилган тезкор тадбир жараёнида фуқаро О.Бекбоев катта лейтенант Ф.Сафаровга 1 миллион 200 минг сўм миқдоридан пулни берган вақтида ушланди ва Жиноят кодексининг тегишли моддаси билан жиноят иши қўзғатилди.

Ҳа, қилар ишни қилиб, айбини пора билан беркитишга уринадиган шахслар ҳамон жамиятимизда учрапти. Шунинг учун қонунни четлаб ўтишга эмас, унга амал қилишни ўрганайлик. Хатони тузатишдан кўра, уни қилмаслик, олдини олган афзал эмасми?!

Туйғун АШУРОВ,
майор.
Мирзоқул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.

Бухоро вилояти.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.facebook.com/postdauz

www.instagram.com/postda_uz

ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ МУАССАСАЛАРИДА

АДАШГАННИ ТЎҒРИ ЙЎЛГА БОШЛАШ – САВОБ

«Малакали кадрлар – ютуқлар гарови» деб бежиз айтишмайди. Шу сабабли Ўзбекистон Республикаси ИИВ ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаменти 5-Минтақавий мувофиқлаштириш маркази 11-сонли ЖИЭКда хизмат олиб бораётган ходимларнинг малакасини ошириш борасида бир қатор ишлар амалга оширилмоқда.

– Хусусан, жанговар ва ўқув-тактик машғулотлар, спорт тадбирлари, курул ва махсус воситалардан фойдаланиш бўйича маҳорат дарслари мунтазам равишда ташкил этиб борилади. Амалдаги қонунларимиз, жумладан, янги таҳрирдаги Конституциямиз бўйича ходимлар ўқитилмоқда. Уларнинг ҳам жисмонан, ҳам маънан етуқлигини таъминлаш хизмат самарадорлигининг муҳим омилidir, – дейди 11-сонли ЖИЭК бошлиғининг маънавий-маърифий ишлар бўйича ўринбосари, подполковник Асрор Ражабов.

Маълумки, маҳкумларни ахлоқан тузатиш, қайта тарбиялаш,

уларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш кўп жиҳатдан колония ходимлари фаолиятига боғлиқ. Шу боисдан, бевосита маҳкумлар билан ишлайдиган ходимлар учун психологик



тренинглари ўтказиб, стресс ва низоли ҳолатлардан чиқиш, касбий зўриқишларнинг олдини олиш, маҳкумлар руҳиятига ижобий таъсир ўтказиш бўйича тавсиялар берилмоқда.

Ислохотлар туфайли муассасада жазо муд-

датини ўтаётган маҳкумларнинг ҳуқуқлари кенгайтирилди. Жумладан, яқин қариндошлари билан учрашув вақти кўпайтирилди. Суҳбатлашнинг масофали видеоучрашув шакллари ҳам йўлга қўйилган. Муассаса ҳудудида электрон дўконларнинг ташкил этилганлиги ҳам маҳкумлар учун яратилган яна бир имкониятдир.

Мазкур колонияда маҳкумларга маҳаллий ҳунармандлар уюшмаси билан ҳамкорликда наққошлик, косиблик, тикувчилик ҳамда электр

пайвандчилик каби касб-хунарлар ўргатилмоқда. Тадбиркорлар билан ҳамкорликда қурилиш моллари ишлаб чиқариш цехи ташкил этилган.

Бир адашганни тўғри йўлга бошлаш савоб, дейишади. Жазо муддатини ўтаётганларни қонунларга, одоб-ахлоқ қоидаларига ҳурмат руҳида тарбиялаш учун муассаса ходимлари бор билим ва малакаларини ишга солишяпти. Бу борада, айниқса, майорлар Феруз Бобоназаров, Бахтиёр Садиков ва Зоҳид Бозоров жонбозлик кўрсатишяпти. Жорий йилда ана шундай саъй-ҳаракатлар натижасида қилмишидан астойдил пушаймон бўлган, қатъий тузалиш йўлига ўтган 33 нафар маҳкум муддатидан илгари шартли озод этилди, 51 нафарининг жазоси енгилроғига алмаштирилди, бир нафари эса Юртбошимиз томонидан афв этилди.

Маҳлиё ХОЛОВА,
ўз мухбиримиз.

Навоий вилояти.

ОТА ИЗИДАН

«МАШАҚҚАТЛИ ХИЗМАТДА МАСЛАҚДОШМИЗ»

Истеъфодаги подполковник Юлдош Рустамов узок йиллар Навоий вилоятидаги қаттиқ тартибли колонияга раҳбарлик қилган. Ички ишлар органларида ҳалол ва виждонан хизмат қилган фахрий ходимнинг уч ўғли ҳам ота изидан кетишди. Ватанга хизмат қилишга бел боғлаган оиланинг тўнғичи Восит Рустамов жазони ижро этиш муассасасида хизмат қилган, ҳозирда истеъфодаги подполковник. Иккинчи ўғил Васил Рустамов эса Тошкент шаҳар ИИББ ходими, подполковник. Капитан Вакил Рустамов кенжа ўғил, у Самарқанд шаҳридаги «Ҳаётбод» маҳалласида профилактика инспектори сифатида фаолият юритади.

– Ака-укалар ички ишлар органлари тизимидаги хизматга қалб амри билан кирдик, – дейди капитан Вакил Рустамов. – Ўзаро оилавий суҳбатларимизда бизни элимиз тинчлигини кўз қорачиғидек асраш, жиноятчиликнинг олдини олиш ва ҳаётдаги қутилмаган муаммоларга барҳам беришдек

мақсад бирлаштиради. Хизматимни тўқис бажаришда отам ва акаларимнинг маслаҳат, йўл-йўриқларидан керакли хулосага чиқараман, улар билан маслақдошман.

Қаҳрамонимизнинг хизмат ҳудуди – «Ҳаётбод» маҳалласида 2 мингдан зиёд аҳоли истиқомат қилади. Ҳудудда иккита ресторан

ва битта университет бор. Шу боис ҳамisha гавжум. Қувонарлиси, ҳудуд тинч-осойишта. Капитан Вакил Рустамов ўз фаолияти давомида муқаддам судланган шахсларнинг бандлиги ва ижтимоий мослашуви алоҳида аҳамият қаратади. Бу борада маҳалла фуқаролар йиғини раиси Дилфуза Холиқова доим ёрдамга тайёр.

– Профилактика инспекторини ҳамма ҳар хил қабул қилади ва кўп нарсани ўзининг қандай тутишини, нуқтаи назарини боғлиқ, – дейди капитан Вакил Рустамов. – Асосийси – ўз ваколатларининг доирасида ҳаракат қилиш, ҳодисани қайд этиш ва манзилга етиб боришгача бўлган вақт ичида ўзининг қутилмаган бу ҳолатга тайёрлаш. Тўғри, ҳар бир ишнинг ўз машаққатлари бор. Тинимсиз саъй-ҳаракат, қатъийлик бўлса, кўп ишларнинг урдасидан чиқиш мумкин.

Замира БОЛТАЕВА,
ўз мухбиримиз.

Самарқанд вилояти.



■ г. Ташкент

ПРОЕКТ ПОМОГАЕТ ЖЕНЩИНАМ

В ГУВД города Ташкента по инициативе старших инспекторов по вопросам женщин недавно был дан старт проекту «Я сильная женщина».



К участию в проекте приглашены 25 женщин и девушек в возрасте от 18 до 35 лет, оказавшихся в сложной жизненной ситуации. Цель – обучение их востребованным на рынке труда профессиям, привлечение к предпринимательской деятельности. Предусмотрено проведение специальных тренингов, мастер-классов, посещение предприятий.

В рамках проекта участницы посетили моноцентр по оказанию услуг незанятому населению «Ишга мархамат». Специалисты предоставили информацию о программах курсов,

в том числе швейного, парикмахерского, кондитерского дела, гостиничного сервиса, косметологии, разъяснили, что обучение будет осуществляться за государственный счет.



Длительность курсов – два-три месяца, в завершение выдается сертификат, позволяющий трудоустроиться, получать достойную заработную плату.

На базе моноцентра была организована и ярмарка вакансий.

Участницы побывали также в кондитерском цехе, расположенном в

Учтепинском районе, ознакомились с условиями, созданными для работников. Проявившие интерес к кондитерскому делу приглашены руководством предприятия на работу.

Мастер-класс по мыловарению для участниц проекта провела сотрудница ОПП УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района

лейтенант Фотима Мавжудова, которая с воодушевлением рассказала о своем увлечении. Женщины попробовали изготовить цветы из мыла, сделать небольшой подарок. Желающим же серьезно заняться данным видом творчества инспекторы помогли составить бизнес-план.

Соб. корр.



Молодежь – наше будущее

ОТВЕСТИ ОТ НЕВЕРНОГО ШАГА

Лейтенант Фазлиддин Хакимов – старший инспектор отдела организации профилактики среди несовершеннолетних и молодежи УПП ГУВД города Ташкента. Еще в годы обучения в Ташкентском государственном юридическом университете он знал, что будет служить в органах правопорядка, усиленно готовил себя к данной деятельности.

Отец, Акмаль Юлдашев, воспитал его ответственным, обязательным, добросовестным. «Человек ощущает смысл и цель своей жизни лишь когда осознает, что нужен другим», – не устают повторять он.

Наставником молодого специалиста является капитан Яшнаф Мусурмонов, который обучает его тонкостям профессии.

С раннего утра и до позднего вечера лейтенант Ф. Хакимов вместе с коллегами разбирается в происшествиях, участниками которых в силу тех или иных причин стали несовершеннолетние.

– Среди них есть ребята, оказавшиеся под влиянием улицы,

дурной компании, – говорит герой очерка.

– Выезжаем на места для выяснения обстоятельств того, почему, например, подросток ушел из дома. Причины разные, но в их основе зачастую кроется безответственное отношение некоторых взрослых к вопросам воспитания детей.

...У Акрома (имя изменено) умерла мама, отец уехал в другую страну на заработки. Парень жил у дяди, которому, честно говоря, было все равно, где и с кем он проводит время. Аكرم связался с плохой компанией, не ночевал дома. Лейтенант вместе с представителями ма-

халли, собрав родственников мальчика, поставил вопрос ребром: «Чем окончится его дружба с сомнительными «друзьями»? Старшие члены семьи сделали правильный вывод: взяли под контроль посещение подростком уроков, Аكرم серьезно занялся спортом, у него появилась цель – после школы поступить в вуз, а потому стал ходить на дополнительные занятия.

– Тесно взаимодействуем с инспекторами профилактики 35 столичных высших образовательных учреждений, – отмечает

наш собеседник. – Хотя контингент здесь и постарше – студенты, но работы, поверьте, не меньше...

Фазлиддин убежден: он занимается нужным делом. Его цель – отвести оступившегося от кривой дорожки, помочь встать на правильный путь.

Мардона БАХТИЯРОВА.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz



Ma'naviyat va ma'rifat darsi

SHARQ TARONALARI: DUNYONI HAYRATGA SOLAYOTGAN OHANGLAR

Kuy-qo'shiq inson qalbida eng nafis tuyg'ularni uyg'otuvchi, kishini ruhlantirib, ezgu ishlarga boshlovchi benazir qudrat, kuchga ega. Bu kuchning benazirligi shundaki, til, millat tanlamaydigan kuy-navolar tarjimonsiz, hech bir to'siqlarsiz inson yuragiga kirib boradi. Va sehrli ohanglar dillarni dillarga, ellarni ellarga bog'laydi. Tinchlik, madaniyat, ma'naviyat targ'ibotchisi sifatida qanchadan-qancha qalblarga insoniylik urug'ini sochadi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan asos solinib, 1997-yildan buyon YUNESKO tashkiloti shafeligida an'anaviy tarzda har ikki yilda muntazam o'tkazib kelinayotgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda, desak aslo mubolag'a emas. Hammamizga yaxshi ma'lum, dunyoning ko'plab qit'a va mintaqalarida turli san'at va musiqa anjumanlari o'tkaziladi. «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali esa ular orasida o'zining alohida o'rni, shuhrati va maqomi bilan ajralib turadi. O'tgan yillar mobaynida mazkur san'at festivali dunyo xalqlari milliy musiqa madaniyati an'alarini asrab-avaylash, targ'ib etish, tili, dini, millatidan qat'i nazar, barcha xalqlarni san'at orqali yaqinlashtirishga xizmat qiladigan va ular o'rtasida do'stlik aloqalarini mustahkamlaydigan nufuzli tadbirga aylandi. Afsonaviy Samarqandning uzoq o'tmishidan so'zlovchi munavvar koshonalari, muattar havosi bilan birga, bu muqaddas zamindan taralayotgan dilbar va maftunkor taronalar ham dunyo ahlini o'ziga chorladi. Ko'rkam va muhtasham Registon maydonining katta sahnasi, yulduzli osmon ostida qanchadan-qancha sehrli navolar, hayotbaxsh ohanglar yangradi. Va bu ijrolar orqali o'nlab noyob yosh iste'dodlar kashf qilindi, nufuzli festival ularning parvozigacha qanot, kuch va ilhom bag'ishladi. Eng muhimi, ushbu anjuman turli sivilizatsiyalar,

xalqlar va millatlar o'rtasida o'ziga xos madaniy hamkorlik hamda muloqot maydoniga aylandi. Buni sayyoramizning barcha qit'alaridan xonanda va sozandalar, musiqa-shunoslar ishtirok etib, o'z milliy kuy-qo'shiqlarini ijro etish barobarida o'ziga xos an'ana va qadriyatlarini namoyish etayotgani misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Yana bir e'tiborga molik jihat shundaki, ushbu festival nafaqat jahon xalqlari milliy musiqa san'atida erishilgan yutuqlarni asrash va rivojlantirish, balki xalqaro ijodiy aloqalarni yanada mustahkamlashda ham muhim omil bo'layotir. Buni festivalning nufuzi yil sayin ortib, ishtirokchilari geografiyasi ham tobora kengayib borayotganidan bilish mumkin.

- **1997-yilda o'tkazilgan «Sharq taronalari» birinchi xalqaro musiqa festivalida 31 mamlakat vakillari qatnashgan bo'lsa, 2019-yilda o'tkazilgan festivalda 75 ta davlatdan 340 nafar vakil ishtirok etgan. O'tgan yillar mobaynida ushbu musiqa anjumanida dunyoning 115 dan ortiq davlatidan san'atkorlar qatnashgan.**

Shu o'rinda 2021-yilda o'tkazilishi kerak bo'lgan qo'shiq bayrami pandemiya sabab qoldirilganligini ta'kidlashimiz joiz. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 2-fevraldagi «Madaniyat va san'at sohasi-



Shu yuksak sahnaga – ko'rkam va muhtasham Registon maydoniga qadam qo'ygan har bir san'atkor, millati, tili va dinidan qat'i nazar, bashariyat farzandi sifatida dillarni dillarga, ellarni ellarga bog'laydi.

Shavkat MIRZIYOYEV

ni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar» to'g'risidagi qarorida «Sharq taronalari» XIII xalqaro musiqa festivalini o'tkazish belgilandi. Unga ko'ra, joriy yil ham an'ana-ga muvofiq, avgust oyining oxirgi o'n kunligida o'tkazilishi ko'zda tutilgan ushbu xalqaro san'at bayramiga katta tayyorgarliklar ko'rilmogda. Ma'lumot o'rnida qayd etish joizki, shu kungacha 80 ta mamlakat san'at vakillari ushbu nufuzli festivalda ishtirok etish istagini bildirgan.

Ma'lumki, xalqaro musiqa festivalida ishtirokchilarning chiqishlari taniqli musiqashunoslar va bastakorlar, xalqaro tashkilotlar vakillaridan iborat talabchan hakamlar hay'ati tomonidan baholab boriladi.

Quvonarli jihati shundaki, o'zining betakror san'ati bilan xalqimiz mehrini qozongan O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq artisti Munojot Yo'ichiyeva, O'zbekiston xalq artistlari Matluba Dadaboyeva, Abduhoshim Ismoilov, O'zbekiston

- xalq hofizlari Sohibjon Ni-yozov va Abdunabi Ibrohimov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Nasiba Sattorova, Dilnura Mirzaqu-lova (Qodirjonova), Nodira Pirmatova, Mohichehra Shomurodova, Toir Qo'ziyev boshchiligidagi «Sato» guruhi, Ilyos Arabov, yosh umidli dutorchi Mehrinigor Abdurashidova xalqaro festivalda ham yuksak ijrochilik mahoratini namoyish etib, g'oliblar safidan joy olgan.

Sirasini aytganda, hamisha dunyo e'tiborida bo'lib kelgan Samarqand bugun yana bir nufuzli tadbirga qizg'in hozirlik ko'rmoqda. Bu – jahon ahlini musiqa va qo'shiq sehrini bilan bir-biriga yaqinlashtiruvchi, dillarni dillarga tarjimonsiz bog'lovchi, insoniyatni faqat ezgulikka chorlovchi «Sharq taronalari» festivalidir.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Qaysi mamlakat vakillari eng ko'p g'olib bo'lgan?

Shu paytgacha o'n ikki marotaba o'tkazilgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali tanlovida 36 mamlakat vakillari g'oliblar safidan joy egallagan.

O'zbekistonlik san'atkorlar 11, Janubiy Koreya 7, Ozarbayjon 6, Xitoy 5, Eron, Hindiston va Rossiya vakillari 4 marotabadan g'oliblikni qo'lga kiritgan.

Shuningdek, Italiya, Gruziya, Quvayt, Tojikiston, Mo'g'uliston va Turkmaniston guruhlar 3 marta, Turkiya, Afg'oniston, Bangladesh, Isroil, Litva, Yaponiya, Qirg'iziston san'at ustalari 2 martadan g'oliblar qatorida e'tirof etilgan.

Qozog'iston, Saudiya Arabistoni, Pokiston, Gretsiya, Misr, Keniya, Malayziya, Madagaskar, Burkina Faso, Buyuk Britaniya, Avstriya, Polsha, Estoniya, Kosta-Rika va Indoneziya jamoalari esa bir martadan sovrindor bo'lgan.

Soibegim DAVLATSHOYEVA, Tojikistonning «Badaxshon» ijodiy jamoasi a'zosi:

– «Sharq taronalari» misolida xalqlar o'rtasidagi tenglik tarannumi, Vatanga muhabbatni ko'raman. Bu yerda jam bo'ladigan odamlar kelib chiqishi, jamiyatlardagi ijtimoiy mavqeyi va boshqa qator omillarga ko'ra bir-biridan farq qilishi mumkin. Ammo ularni bir jihat – musiqaga bo'lgan muhabbat bog'lab turadi. Mana, yigirma yildan ortiq vaqt o'tibdik, «Sharq taronalari» misolida muhabbat taronalari dunyo uzra taralloqda.





Мулоҳаза

«Пулни ҳеч ким ердан супуриб олмайди». Халқ орасида тез-тез тилга олинадиган бу иборада жон бор. Сабаби, пулни топиш учун ақл билан, чидам билан ҳалол меҳнат қилиш керак. Уни ишлатишда эса бундан-да ўн чандон ақл билан иш тутиш зарур бўлади.

Албатта, бугун бунинг уddасидан чиқаётганлар кўп. Сармоясини хайрли ишларга сарфлаб, кичик корхона ёки маиший хизмат кўрсатиш жойи очишяпти. Одамларни иш билан таъминлаяпти. Оиласи ҳам фаровон, тўй қилаяпти, машина олаяпти. Чунки оила бюджетини расамади билан ишлатаяпти.

Қумқўрғон туманидаги қишлоқ мактабида математикадан дарс берадиган ўқитувчи аёлни танийман. Икки нафар фарзанди бор. Ишдан сўнг уйида фарзандлари билан бирга ҳам томорқасида ишлайди, ҳам товук боқади. Яна баҳорда қорамол олиб, меҳнат таътилида уларни яхшилаб семиртиради. Яқинда улардан яхшигина даромад кўрди. Бир неча йилдан бери шу тартибда пул жамғариб, келгуси йил олий ўқув юртига ўқишга кирмоқчи бўлган ўғлига пойтахтдан уй сотиб олди.

Бу аёлни қишлоқда ҳовли-жойи бўла туриб, куруқ маошга қараб нолиб яшайдиган

бренди, бозорда энг қиммат нархли бўлганига аҳамият қиламиз. Ҳатто айримларимиз кети узилмайдиган тўй-маъракаларга янги кўйлак олмасак, кўнглимиз жойига тушмайди. Гўё янги кўйлак бизни бошқа одамга айлантириб қўядигандек. Бу эса баъзан молиявий режаларимизни бутунлай ўзгартириб юбориши ҳеч гап эмас. Назаримда, харидни зарурлиги, ҳар томонлама мақбул ва қулайлигига кўра танласак, фойдадан холи бўлмайди.

Баъзида одамлар бошқалардан кам бўлмаслик учун осонлик билан қарз олишга, қўшнисиникидан баландроқ бино куриш учун қарз кўтаришга тайёр. Бундайлар кўп ҳолларда катта «даромадни» қўлга киритиб, ўринсиз сарфлагани сабабли молиявий муаммолар гирдобидида қолади.

Ўзаро суҳбатларда тежамкорлик ҳақида гап кетса, японларни, немисларни мисол қилиб кўрсатамиз. Аммо японлар ҳам, немислар ҳам тўйига, икки соатлик базмига минг кишини таклиф қилмаслиги, миллион-

ТИЙИН СЌМНИ ТЕЖАЙДИ

лаб пулларни беҳудага совурмаслигини ўйлаб ҳам кўрмаймиз.

Тўғри, ҳамма яхши яшашга, кўпроқ пул топишга интилади. Аммо пул топиб, ақл топмаганлар кўплиги ҳам бор гап. Россияда уч-тўрт йил ишлаб, минг машаққат билан маблағ жамғариб қайтган маҳалладошимиз тумонат одам йиғиб, ресторанда ўғилларига суннат тўй қилди. Кетган сарф-харажатга бола-чақаси икки-уч йил ҳеч нарсага зориқмай яшаши мумкин эди. Бир ойдан кейин йўлқирани қарз-қавола қилиб, яна қайтиб кетган йигит рус ишбошисига тўйнинг видеосини кўрсатиб мақтанибди. У ажабланиб, кўрсаткич бармоғини чеккасига нуқуб, «Нима, сен аҳмоқмисан, қийналиб топган пулингни шунақа қилиб елга совуриб келдингми?» деб дашном берибди. Энг ачинарлиси, йигитнинг ҳовли-жойи, томорқаси қаровсиз, оиласи ночорликда яшайди. Отанинг қаттиққўл тарбияси бўлмагандан кейин болалари ҳам ўқишни ташлаб қўйган...

Америкалик миллиардер Генри Форд ҳам ёшлигида оддий устачилик қилиб, пул жамғарган. Аста-секин тадбиркорлик билан иш юритиб, автомобиль саноати магнатига айланган. Аммо у доимо жамоат транспортда юрган, энг арзон ошхоналарда овқатланган. Чунки бу ишбилармон одам ҳар бир тийинни қадрлаган.

Ота-боболаримиз томонидан топиб айтилган бир мақол бор: «Ҳисобини топмаган қирқ йил етим, ҳисобини топган бир йил етим». Назаримда, ҳар биримиз ушбу мақолнинг мағзини қақиб кўрсак ёмон бўлмайди. Зеро, тежамкорликда ҳикмат кўп.

Феруза РАҲМОНҚУЛОВА.

ТИЛАНЧИЛИК МИЛЛАТИМИЗГА ХОС ЭМАС

Баъзан кўча-кўйда, бозорларда, истироҳат боғларида тўрт мучаси соғ кишиларнинг тиланчилиқ қилиб турганига гувоҳ бўламиз. Кўпчилиқ ҳамюртларимиз меҳнат қилишдан қочиб, белини оғритмай, жонини койитмай пул топишни афзал деб билишади. Баъзилар эса «Бечора, тирикчилиқ учун мажбур бўлган-да», деб қўя қолишади. Аслида агар тайинли иши бўлмаса, рўзғор тебратиш учун бировларнинг юмушини бажариб бўлса ҳам, пешона тери билан ҳалол пул топган тиланчилиқ қилгандан кўра афзалдир.

Яқинда чорраҳада, айнан светофор ёнида тахминан 12 ёшлар атрофидаги болани учратдим. У «Менга ёрдам беринг, онам касал» деб ёзилган қоғозни бўйнига осиб олганча, тўхтаган машиналар ойналарига қўлини чўзарди. Унга ачинганлар пул беришарди. Агар ростдан ҳам оиласи ночор аҳволда бўлса, болага ачинади киши. Мабодо шунчаки тиланчилиқни ўзига касб қилиб олган бўлса-чи? Болалигидан ёлғончилиқка, текинхўрликка ўрганса, келажакда қандай инсон бўлиб вояга етади? Қолаверса, тиланчилиқ ортидан ўғрилиқ, майда безорилиқ, сўнг эса янаям



оғирроқ жиноят содир этмайди деб ким кафолат беради?!

Дехқон бозорининг кириш жойида ногиронлиқ аравачасида ёш боласини йиғлатиб, тиланчилиқ қилиб ўтирган аёлга тез-тез дуч келаман. Ўз фарзандининг ногиронлигидан манфаат кўзлаш ота-онага муносибми? Жамиятимизда ёрдамга муҳтож, айниқса, ногирон инсонларга алоҳида эътибор қаратиляпти. Ногиронлиги туфайли меҳнат қилишга имконияти бўлмаганларга давлатимиз томонидан нафақа пуллар ажратилаётгани ҳеч кимга сир эмас. Маҳалла-қўй, саховатпеша тадбиркорлар ҳам етим-есир, хаста, ногиронлиги бўлганларга бефарқ қараб турмайди. Одамлар уларга қўлларида келганча ёрдам беришга, меҳр-саховат улашишга ҳаракат қилишади. Шунга қарамай, тиланчилиқ қилиш ношукурликнинг бир кўриниши, десам, адашмайман.

Ҳаёт ҳар доим ҳам биз ўйлагандек бир текис давом этавермайди. Бир кун шодон, тўқис бўлса, яна бир кунимизда ташвишларга кўмилиб, топганларимизни амал-тақал қилиб етказамиз. Нима бўлганда ҳам, садақа сўраш, ўзгалардан ризқ тиланиш миллатимизга хос эмас.

Маҳлиё ХОЛОВА,
ўз мухбиримиз.

Навоий вилояти.



магани ва ишлаб топган даромадини тўғри тақсимлай олмагани сабаб бўлади. Бундай кишилар чиқимларни тўғри режалаштириш, аниқ чамалаш, исрофгарчиликларнинг олдини олишга ҳам етарли эътибор қилишмайди. Ваҳоланки, мазкур қоидалар тежамкорликнинг муҳим омилларидан саналади.

Савол туғилади: ҳар доим ҳам истеъмол ахлоқига амал қиламизми? Кўпинча биз – аёллар кўйлак сотиб олаётганимизда, унинг



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz




www.instagram.com/postda_uz



Молодежь – наше будущее

ДОСТИГАЯ ПОСТАВЛЕННЫХ ЦЕЛЕЙ



Старший специалист – оператор службы «102» рядовой Жавахирбек Газиев недавно окончил факультет заочного обучения Академии МВД Узбекистана. Теперь он продолжит службу инспектором отдела правовой статистики и оперативно-учетной информации УВД Андижанской области.

В органах внутренних дел Ж. Газиев с 2012 года. Начинал с должности делопроизводителя Андижанского ГОВД.

– Когда у меня возник вопрос выбора будущей профессии, решил – стану сотрудником органов внутренних дел, – говорит Жавахирбек. – С юных лет считал, что надо помогать окружающим, в любой ситуации проявлять чувство ответственности. Ни разу не

сомневался в правильности принятого решения. Это профессия, которая мне по душе. За годы обучения в Академии приобрел прочные знания и навыки, которые буду применять в служебной деятельности. Нацелен на достижение высоких результатов.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.
Фото автора.

Андижанская область.



Осторожно: мошенники!

КВАРТИРНЫЙ АФЕРИСТ

Основная цель мошенника – это завладение чужим имуществом. Для ее достижения он идет на многое. Перед жертвой разыгрывается спектакль по уже заготовленному сценарию, где в главной роли аферист. При этом используется особый механизм воздействия: искренний взгляд, крепкое рукопожатие, выдуманные рассказы, в которых упоминаются имена известных людей. Мошенник внимательно наблюдает за потенциальной жертвой, просчитывает дальнейшие шаги, которые должен будет предпринять...

35-летнему Абдурашиду (имена фигурантов дела изменены) в последнее время не везло. Так, по крайней мере, он думал. Имея среднее специальное образование, мужчина не реализовал себя в специальности, которую получил. «Если у тебя есть мозги и предпринимательская жилка, то ты сможешь выкрутиться в жизни». Он избрал для себя стезю посредника в сделках с недвижимостью. Однако, совершив противоправное деяние, перешагнув черту закона, оказался на скамье подсудимых. В зале суда раскаивался в содеянном.

Абдурашид, освободившись из мест лишения свободы, откуда был переведен на исправительные работы по месту жительства, долго не раздумывая, разместил объявление на платформе онлайн. Оно гласило: «Опытный риелтор поможет сдать, арендовать недвижимость в различных районах столицы». Однако цель была иная...



Первой жертвой лже-риелтора стал Анвар, который позвонил по указанному в объявлении номеру. Абдурашид предложил встретиться и обсудить варианты сдаваемого жилья. В ходе встречи аферист продемонстрировал все свои артистические способности.

Абдурашид вел Анвара от одного многоэтажного дома к другому... Указав на окна одной из квартир, сказал, что она скоро освободится, а хозяин ищет нового арендатора.

«Братишка, хочу тебе помочь, потому что ты хороший парень, квартира будет

твоей. Переговорю с хозяином, но надо внести предоплату за аренду. Сумма небольшая, не переживай», – произнес он, сопровождая речь похлопыванием по плечу жертвы.

Анвар как замороженный протянул 300 долларов США Абдурашиду. Спектакль

сыгран, занавес закрыт. Абдурашид, взяв деньги, скрылся, пообещав позвонить как только квартира освободится. Прошло три месяца. Абдурашид не отвечал на звонки Анвара. А когда молодой человек отправился в квартиру, которую он собирался снимать, выяснилось, что она никогда не сдавалась в аренду.

Анвар обратился с заявлением в УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района. Следственный отдел при УКД ОВД возбудил уголовное дело по ст. 168 («Мошенничество») УК Республики Узбекистан. В ходе следствия было установлено, что от действий лже-риелтора пострадали 22 человека, нанесенный ущерб составил 75 796 000 сумов.

Решением Мирзо-Улугбекского районного суда по уголовным делам Абдурашид признан виновным в совершении мошенничества. Ему назначено наказание в виде лишения свободы сроком на шесть лет с присоединением неотбытого срока за предыдущее наказание.

Улугбек БАХТИЁРОВ,
следователь
СО при УКД ОВД
Мирзо-Улугбекского
района города Ташкента,
лейтенант.



Mutaxassis fikri

O'ZARO HURMAT
YO'LDA HAM ZARUR

Xizmat yuzasidan Sardoba tumanida ko'p bo'laman. Mazkur tuman Sirdaryo viloyatining chekka hududlaridan. Bir cheti qozoq cho'llariga tutash. Dalalari serhosil. Qovunlarining dong'i yetti iqlimga ketgan. Tuman hududini kesib o'tgan Toshkent – Nukus xalqaro avtomobil yo'lidan harakatlangan borki, tumanda bir to'xtab, shirasi tilni yorar qovunlardan xarid qiladi.

Kecha-yu kunduz harakat tinmaydigan avtotrassada sodir bo'lgan ayrim yo'l-transport hodisalariga haydovchilarning yo'llarda harakatlanish madaniyatiga bepisandlarcha munosabatiga guvoh bo'laman. Bir-biriga yo'l berish, o'zaro hurmat-izzat ko'rsatish kabi milliy qadriyatimizni haydovchilar o'rtasida kam uchrataman. Aynan mana shu omil ayrim yo'l-transport hodisalariga sabab bo'lmoqda. Yo'lda shoshilib harakatlanish, birinchi bo'lib o'tib ketishga urinish, ikki qatorli yo'lda tezroq harakatlanayotgan transport vositasiga yo'l bermaslik natijasida bir qancha avtohalokatlar sodir bo'lganini ko'rib achinasan.

Masalan, «Isuzu» rusumli yuk avtotransport vositasi mazkur yo'lining markaziy qismidagi liniyadan harakatlanib ketayotib, «Gentra» rusumli mashinaga quvib o'tishi uchun imkon bermagan. Natijada, «Gentra» quvib o'tish qoidasiga zid ravishda o'ng tomondan oldinga o'tgan. Oqibatda ikki avtotransport vositasi o'zaro yonbosh tomondan to'qnashgan. Aslida yuk avtomobili yo'lining chetroq, o'ng tomondagi qismida harakatlanishga o'tib, yengil avtomobilni o'tkazib yuborishi kerak edi.

Bunday munosabat «Tez yordam» avtomobillariga yo'l berishga mas'uliyatsiz yondashishda ham uchrab turishiga nima deysiz? Yaqinda ana shunday

holat sodir bo'ldi. O'rtacha tezlikda harakatlanayotgan «Matiz» avtomobili viloyat markaziga tomon shoshilayotgan «Hunday» rusumli «Avia tez yordam» mashinasini o'tkazib yuborishni istamadi. Axir, bu mashinada olib ketilayotgan og'ir ahvoldagi bemorning hayotini saqlab qolish uchun har bir daqiqa muhimdir. Buni tushunish nahotki qiyin?! «Matiz» haydovchisi K. B. to'xtatilib, undan bu haqda so'ralganida, o'zi ham o'ta shoshayotganini aytib norozilik bildirdi. Nima deyishni bilmay qoldik, har kimning dunyoqarashi har xil.

Kuzatilayotgan salbiy odatlardan yana biri – harakat paytida transport vositasini siqish, uning oldiga o'tib, atayin sekinlashishdir. Bu qanday sodir bo'ladi? Oldinda ketayotgan haydovchi ba'zan o'ngga yoki chapga burilish «manyovr»ini bajarayotganda, tezlikni pasaytirib, keskin harakat qilib yuborishi ortda kelayotgan transport vositasiga xavf tug'diradi. Natijada, orqada kelayotgan haydovchi bu holatga javob berib qo'yishni lozim deb hisoblaydi. G'arazli niyatda oldinga o'tib, o'sha mashinani siqadi, sekinlashib, harakatlanishiga xalaqit beradi. Oqibatda avtohalokat sodir bo'ladi. O'tgan yili tumanimizda aynan shunday tortishuv natijasida uchta avtohalokat sodir bo'lgani ham fikrimizning dalilidir.

Tuman hududida yo'l-harakati qoidalariga amal qilish yuzasidan ko'plab targ'ibot tadbirlari o'tkazyapmiz. Lekin bu borada eng samarali usul oilada yoshi ulug'lar, mahallada oqsoqollar tomonidan o'zaro izzat-hurmat yo'llarda ham zarurligini yoshlar ongiga singdirish ekanini yana bir bor eslatmoqchimiz. Zotan, ma'naviyati bilan dunyoni lol qoldirgan xalqimiz vakillariga bu kabi salbiy holatlar aslo yarashmaydi.

Erkinjon BOYZOQOV,
Sirdaryo viloyati IIB JXX YHXB
TNB yetakchi mutaxassisi, kapitan.

Ўқишни тавсия қиламан

ҚАЛБЛАР АРДОҒИДАГИ
ЖАВОҲИР

Авар халқининг фарзанди Расул Ҳамзатовни, шубҳасиз, ўз миллатини улуғлаган буюк қаҳрамон, дейиш мумкин. У дунёдаги миллионлаб, эҳтимолки, миллиардлаб инсонларга Ватанни севишни ўргата олган том маънодаги адибдир.



Доғистоннинг олис тоғли ҳудудида туғилиб камолга етган ижодкорнинг «Менинг Доғистоним» асари жаҳоннинг кўплаб тилларига таржима қилинган. Тоғликлар чапани, қайсар, қатъиятли ва бир сўзли бўладилар. Бу эгилмас характер асарда яққол кўзга ташланади.

«Тоғликлардан сўрашди: «Нега сизлар тоғларнинг бориб бўлмайдиган жойларида уйлариңизни қурасизлар?» Тоғликлар жавоб беришди: «Яхши дўстлар писанд қилмасдан ёмон сўқмоқлардан ҳам ўтиб келишади, ёмон кишиларнинг эса бизга кераги йўқ»... Асарни ўқир экансиз, баланд қоялар томон кетган кимсасиз йўлда тиниқ сувли булоққа дуч келиб қолгандек сезасиз ўзингизни. Иссиқдан бўғриқиб кетган тана муздек сувдан қандай роҳат олса, асар руҳингизга ана шундай роҳатбахш туйғуларни ҳада этиб боради. Сими-расиз – тўймайсиз, қайта-қайта тиниқ чашмадан баҳраманд бўлаверасиз.

Асар ёзиш учун ёзувчи бутун умр тайёргарлик кўрган, одамлар билан учрашган, ҳайратларини ёзиб, тўплаб юрганлигини сезиш қийин эмас. Беихтиёр авар халқининг соддалиги, букилмас иродаси, ёлғон, ҳийлалардан узоқлиги, меҳмондўстлиги, дўсти учун жонини фидо қилиши, ғурурли, донишманд одамларининг қиёфаси кўз олдингизда гавдаланади.

Мана, асар ёзилганига 53 йил бўлибди. Лекин ундаги фикрлар нафақат бугунги замонамизда, балки яна юз йиллардан кейин ҳам ўз қадр-қимматини йўқотмайди. Чунки Онага ва Ватанга муҳаббат мавзуси ҳеч қачон эскирмайди, қадр-қимматини йўқотмайди.

Авар халқининг ўзига хос фазилатлари унинг меҳмондўстлигида. Улар ўзларидаги бор бойликни ҳада қилишлари мумкин, лекин Ватанни эмас. Унинг ҳар бир қарич тупроғи жон қадар азиз:

«Тоғликларда шундай одат бор: меҳмонга уйингдаги бирор нарса ёқиб қолиб, уни мақтагудай бўлса, ачинсанг ҳам совға қилишинг керак... Бир вақтда Қўмиқдан меҳмон келиб, уйдаги бор нарсани мақташга тушибди. Унга мақтаган ҳамма нарсасини беришибди. Лекин уни кузатаётганда этигига ёпишган тупроқни сидириб олишди...»

Бугина эмас, адиб ўқувчига чин инсоний сабоқларини ҳам бера олган: «Жимжилоқ кичкина бўлгани билан усиз улкан муштни қаттиқ тугиш мумкин эмас».

Хулоса ўрнида айтганда, «Менинг Доғистоним» асари ўзбек китобхонларининг ҳам қалбини забт этишга улгурган. Юракларни уйғотиб, ўзликни англаш сари қадам ташламоқчи бўлсангиз, ушбу асарни ўқишни тавсия этаман.

Бобурмирзо ДАДАМИРЗАЕВ,
катта лейтенант.

Наманган вилояти.





Mashhur kishilar hayotidan

BIR KUN O'TKIR HOSHIMOV...

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov Toshkentning Do'mbirobdahasida 1941-yilning 5-avgustida tavallud topgan.

«Toshkent oqshomi» gazetasida bo'lim mudiri, G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda bosh muharrir o'rinbosari, «Sharq yulduzi» jurnalining bosh muharriri bo'lib faoliyat yuritgan. U O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati hamda Matbuot va axborot qo'mitasining raisi bo'lib ham ishlagan.

Birinchi kitobi 1962-yilda «Po'lat chavandoz» nomi bilan bosilib chiqqan. Ayniqsa, adibning «Bahor qaytmaydi», «Qalbingga quloq sol» kabi qissalari yozuvchiga shuhrat keltirdi. 1976-yilda mazkur asarlar muallifi Respublika Yoshlar mukofotiga sazovor bo'ldi.

Adib «Nur borki, soya bor» romanida jamiyat ijtimoiy hayotidagi illatlarni, turg'unlikning mohiyatini ochish asnosida davrning muhim ma'naviy-axloqiy masalalarini ko'tarib chiqdi. Shundan so'ng u yana bir go'zal asarni — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek mukofoti bilan taqdirlangan «Dunyoning ishlari» qissasini yaratib, ma'naviyat haqidagi bahsni davom ettirdi.

O'tkir Hoshimov ijodida «Ikki eshik orasi» romani alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Unda adib qariyb qirq yillik davrni o'z ichiga olgan va bir qator chigal hamda murakkab taqdirar misolida o'z xalqining tarixiy qismatini mahorat bilan umumlashtirib berdi. Shu tufayli ham O'. Hoshimov romani 1986-yilda Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

«Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobi ijtimoiy-ma'naviy hayotda muayyan iz qoldirgan.

O'. Hoshimovga samarali ijodiy mehnati uchun 1991-yili «O'zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni berilgan. «Mehnat shuhrati», «Buyuk xizmatlari uchun» ordenlari bilan mukofotlangan.

2013-yil 24-may kuni Toshkent shahrida vafot etgan.



«SHOIR BO'LA QOLSIN...»

«Toshkent oqshomi»da adabiyot va san'at bo'limini iste'dodli adib O'tkir Hoshimov boshqarardi. U paytda havaskorlar ijodiy chop etiladigan nashrlar ko'p emasdi. Odatda ijodkorlar o'zi yozgan narsalarini eng ommabop nashr bo'lgan «Oqshom»ga olib kelishardi. Bir kuni yozuvchi huzuriga bir-ikki o'rtamiyona shoir o'z asarlariga Abdulla Oripovdan so'zboshi, «Oq yo'l» yozdirib kelishdi. O'tkir Hoshimov ularni olib qoldi va o'qib ko'rgach, ajablangan holda Abdulla Oripovga telefon qildi. Ular tengqurligi bois bir-biriga hazillashib, «bo'tam» deb murojaat qilishardi.

— Nima qilyapsan, bo'tam? Bo'lar-bo'lmas narsalarga so'zboshi yozaverasanmi?

— Qo'yaver, bo'tam, men yozgan «Oq yo'l» bilan shoir bo'lishsa, bo'la qolishsin, — dedi Abdulla Oripov tabassum bilan.

«KO'R KO'RNI QORONG'IDA TOPIBDI»

Bir kuni xodimlardan biri o'z maqolasida «Ko'r ko'rni qorong'ida topibdi» degan maqolni ishlatibdi. Uni o'qib qolgan O'tkir Hoshimov To'liq Rasulov va Solih Yoqubovni yoniga chaqirdi. Yangi «shumlik» rejasi tuzildi. Telefon orqali xonaga maqola muallifi chaqirildi. O'tkir aka jiddiy tarzda gap boshladi:

— Og'ayni, nima qilib qo'ydingiz? Ko'rlar jamiyatidan kelgan delegatsiya bosh muharrirning qabulxonasida o'tirgan ekan. «Hukumatimiz ko'zi ojizlar haqida katta g'amxo'rlik qilayotgan

bir paytda bizni haqorat qilishga jur'at etgan jurnalistni bir ko'rib qo'yaylik», deyishdi. Bittasi meni tanir ekan. «Kechiringlar, bilmasdan maqolni no'rin ishlatibdi, o'zi yaxshi yigit, biz unga o'zimiz tanbeh beramiz», dedim. Ular baribir bosh muharrirga kiramiz, deb turib olishdi. Manavi akalaringiz bilan birga bir amallab jo'natib yubordik.

Rangi oqarib ketgan xodim qayta-qayta minnatdorlik bildirar ekan, ishdan keyin tashkil qilgan dasturxonida «bunday xato»ni boshqa takrorlamaslikka so'z berdi.

YOZUVCHINING DASTXATI

O'tkir Hoshimov o'z shaxsiy mashinasini haydab kelayotgan edi. Qaysidir chorrahada uni yo'l mirshabi hushlagini churillatib to'xtatdi. Bu borada tajribasi oshib qolgan yozuvchi darrov g'aladonni kovlay boshladi. Odatda yangi chiqqan kitoblardan bir nechasini shu maqsadda olib yurardi.

— Salom, o'rtoq inspektor, kechirasiz, familiyangiz ni maydi? — dedi mashinadan tusharkan, qo'lidagi kitobga dastxat yozishga hozirlanib.

— Iye, O'tkir aka, sizmisiz? — dedi mirshab jilmayib. — Bu kitobingizga oldin dastxat yozib bergandingiz-ku!

— Shunaqami, — bo'sh kelmadi yozuvchi, — unda yangi kitobim chiqishini kutishingizga to'g'ri keladi. Ungacha ovora bo'lib to'xtatib yurmang.



KECHA

VA

BUGUN



EHTIYOT BO'LING, ZAHARLANISHDAN SAQLANING!



og'izga solishdan saqlanish kerak. Ayniqsa, bozordan ho'l meva xarid qilayotganingizda iloji boricha yuvib iste'mol qilish darkor. Tayyorlanish va saqlanish sharoitlari sanitariya-gigiyena talablariga javob bermaydigan va uzoq vaqt turib qolgan ovqatlar yoki salatlarini iste'mol qilmang. Ochiq suv havzalarida cho'milganda suvlarning tozaligiga va cho'milish jarayonida suv yutmaslikka e'tibor bering. Sovutkichni toza tutish, undagi mahsulotlarni o'z vaqtida iste'mol qilish, uzoq muddat saqlamaslik, tayyor pishgan ovqat mahsulotlarini 2–4 soatdan keyin iste'mol qilmaslik, yaroqlilik muddati o'tgan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olmaslik va iste'mol qilmaslik kerak. Kundalik turmushdagi jismoniy harakat insonning qarshilik kuchini (immunitet) oshiradi. Qolaversa, atrof-muhit, yashash, xizmat xonalari va umumiy foydalanadigan joylarning, oshxona, bufetlar doimo ozoda bo'lishini ta'minlash kerak.

Botirbek FAZILOV,
IIV SENBM epidemiologiya
bo'limi boshlig'i,
podpolkovnik.

Yurtimizda yoz oylarida kuzatiladigan issiq kunlarga ancha o'rganib qoldik. Dehqonlarimiz baraka topishsin, dasturxonimizni yoz ne'matlari bilan to'kin-sochin qilishyapti. Bu yaxshi, albatta. Biroq, ana shu ona tabiat ne'matlarini iste'mol qilishda ehtiyotkorlikni unutmang. Ayniqsa, qovun-tarvuz sotib olayotgan payt ularning bus-butunligiga, chirimaganiga va kimyoviy o'g'itlar bilan me'yordan ortiq to'yintirilmaganiga e'tibor qaratish kerak. Agar tarvuzning qizil qismidagi tomirlar rangi sariq bo'lsa yoki binafsha rangda bo'lsa, bunday mahsulotdan ehtiyot bo'lish lozim. Chunki u to'liq pishmagan yoki nitratning ta'siri bo'lishi mumkin. Tarvuz ustidagi chiziqlar aniq va bir-biri bilan chatishib ketmagan bo'lishi lozim. Xiralashgan chiziqlar uning nitratlar bilan to'yinganidan dalolat. Sababi, bugungi kunda ayrim shoshqaloq dehqonlar ushbu mahsulotlarni tezroq yetishtirish maqsadida azot saqlovchi kimyoviy o'g'itdan ko'p miqdorda foydalanmoqda. Bu esa tarvuzdan zaharlanishga sabab bo'ladi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun qovun-tarvuz palagidan uzilganidan so'ng, qisqa muddatlarda iste'mol qilinishi kerakligini bilib qo'ygan yaxshi. Qolaversa, qovun-tarvuz xarid qilayotganda, mahsulot manbayi, uning xavfsizligini tasdiqlovchi ruxsatnoma bilan tanishib qo'yish ham foydadan xoli emas. Bunday mahsulotlarda suv va qand miqdorining yuqoriligi, quyoshning tik nuri ostida uzoq muddat qolishi mikroorganizmlar uchun juda ma'qul ozuqaviy muhit hisoblanadi. Bunday sharoitda qisqa muddatlarda shirin poliz mahsuloti kasallik manbayiga aylanib ulgurishi hech gap emas. Shuningdek, bunday poliz mahsulotlari ezilgan yoki kesilgan holatda uzoq muddat yuqori haroratli tashqi muhitda saqlansa, xavf yanada ortadi.

Qovun-tarvuz mahsulotlarini saqlash qoidalariga amal qilinmasa yoxud iste'mol qilishda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etilmasa, bu kasallik kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Kutilmagan kasallikdan saqlanish uchun iste'mol qilayotgan mahsulotlarning turi, sifatiga alohida ahamiyat

qaratish kerak.

Ovqatdan zaharlanishda kasallikning kechishi organizmga tushgan qo'zg'atuvchining miqdori va bemorning salomatlik darajasiga bog'liq. Buning natijasida bemor ko'p suyuqlik hamda organizm uchun zarur bo'lgan mikroelementlarni yo'qotadi. Organizmda suv-tuz balans hamda modda almashinuvi buziladi. Bu esa bemor tanasining suvsizlanishiga olib keladi. Tana suvsizlanishi juda xavfli holat bo'lib, u o'z vaqtida va to'g'ri davolanmasa, bemorning vafotiga olib kelishi mumkin.

Ovqatdan zaharlanishni turli xildagi mikroorganizmlar keltirib chiqarishiga qaramay, ular uchun bir qancha umumiy alomatlar xarakterlidir. Jumladan, o'tkir yuqumli ichak kasalliklaridan saqlanishda suvni qaynatilgan holda ichish, ozodalikka rioya qilish, ayniqsa, qo'llarni ovqatdan oldin va hojatdan keyin sovunlab yuvish zarur. Umuman, xizmatda, jamoat joylarida, uyda shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish muhim. Har narsani bilib-bilmay

Кишечные инфекции. Жара, повышенная влажность – благоприятные условия для размножения вирусов и бактерий. Как правило, они попадают в организм с едой и водой. Основными факторами, которые провоцируют распространение кишечных инфекций, являются:

- плохая гигиена;
- антисанитарные условия в местах общественного питания;
- немытые фрукты и овощи;
- насекомые, особенно мухи-переносчики;
- неправильные условия хранения продуктов.

Кишечные инфекции проявляются:

- жидким стулом (диареей);
- тошнотой;
- рвотой;
- повышением температуры тела;
- болями и кишечными коликами;
- слизью и кровью в стуле.

Обращаем внимание на то, что самостоятельно принимать антибиотики не следует, правильно подобрать терапию может только врач в зависимости от вида инфекции.

Солнечный удар – перегревание в результате длительного пребывания на солнце и прямого воздействия солнечных лучей.

Признаки:

- повышение температуры тела;
- покраснение кожного покрова;
- усиление потоотделения;
- учащение пульса и дыхания;

ЧЕГО ОПАСАТЬСЯ В ЖАРУ?

Изобилие свежих фруктов и овощей, оздоровление у озера или реки... Многим кажется, что заболеть в этот период достаточно сложно. Но это не так, ведь летний сезон связан с ежегодной вспышкой инфекционных заболеваний. И не только...



- головная боль, слабость, шум в ушах;
- тошнота, рвота.

При продолжительном воздействии тепла может быть повышение температуры до 40 °C, потеря сознания, судороги. Нередко ожоги кожи I и II степени.

Помощь при солнечном ударе: пострадавшего следует немедленно уложить с приподнятой головой в тенистом месте или прохладном помещении;

- снять с него одежду, уложить и обернуть во влажные простыни или полотенца, на голову положить пузырь со льдом или с холодной водой. Нельзя пострадавшего погружать в холодную воду, так как возможна рефлекторная остановка сердца;
- давать обильное прохладное питье;
- при наличии ожогов необходимо пораженную кожу смазать

вазелином, пузыри не вскрывать, наложить сухую стерильную повязку и обратиться в лечебное учреждение.

Ангина. Возбудители ангины (стафилококки и стрептококки) передаются воздушно-капельным путем. Если иммунитет ослаблен, организм не может противостоять инфекции, резко повышаются шансы на развитие недуга.

Какие факторы способны снижать иммунитет летом? Это резкие перепады температур, ледяные напитки, холодный воздух кондиционера, который дует на разгоряченное тело. Кроме того, на иммунную систему может негативно повлиять длительное пребывание на солнце и перегрев.

Самозаражение ангиной может произойти при наличии постоянного очага инфекции, невылеченного кариеса или хронической формы тонзиллита. Своевременное лечение и учет факторов, снижающих защитные силы организма, способны уберечь от ангины. Если же заражение произошло,

появилась боль в горле, высокая температура, следует обратиться за помощью к врачу.

Аллергия и астма. Обилие цветущих растений, укусы насекомых, непривычные продукты питания – эти и другие факторы провоцируют обострение аллергических реакций. Признаками летней аллергии являются:

- частое чихание и выделения из носа, особенно в сухую погоду;
- зуд в горле и в носу;
- головная боль.

Температура при этом не повышается, а симптомы не прекращаются длительное время. Сезонная аллергия может проявляться высыпаниями, а также вызывать приступы астмы.

При склонности к аллергическим реакциям рекомендуется посетить аллерголога. Он назначит необходимые анализы, чтобы выявить природу заболевания и обезопасить вас от его проявлений.

Шахло САТТАРОВА,
врач-инфекционист
поликлиники
медицинского отдела ГУВД
г. Ташкента.





Жиноят ва жазо

«ХОҲЛАСАНГИЗ, БОШҚА ИШГА ЖОЙЛАБ ҚЎЯМАН»

Сир эмаски, бугунги кунда алдаш ва ишончни суиистеъмол қилиш йўли билан содир этиладиган фирибгарлик энг кўп учраётган жиноятлар сирасига киради. Гап шундаки, фирибгарлар фуқароларнинг ишонувчанлигидан устомонлик билан фойдаланиб, ҳар қандай ҳолатдан «унумли» фойдаланиб қолишни кўзлайди.

Жорий йилнинг апрель ойида нукуслик Тоҳир Мақсумов (исм-шарифлар ўзгартирилди) шаҳардаги маиший хизмат кўрсатиш марказларидан бирига иш билан борганида, қўлидаги бир тўплам ҳужжатлардан нусха кўчираётган йигит билан танишди. Суҳбат давомида ўзини Зарифбой Алимов дея таништирган йигит республикадаги йирик қурилиш компанияларидан бирига ишга ўтаётган шахсларнинг ҳужжатларини тайёрлаётганини айтди. Унинг ушбу компанияда ишчилар учун яратилган шарт-шароит ва иш ҳақи тўғрисидаги сўзларидан кейин Тоҳирнинг қизиқиши ортди.

Тоҳир Мақсумов айти пайтда З.Алимовнинг ўзи ҳам ишга кириш учун номзод эканлигини, навбатда турганини унутиб, рўпарасида компанияда масъул лавозимда ишлаб келаётган ходимни

кўргандек ундан ишга ўтиш учун ёрдам беришни илтимос қилди. Суҳбатдошини ишонтира олганига ишонч ҳосил қилган Зарифбой бу вазиятдан фойдаланиб қолишни режалаштирди. Ҳозирча компанияда бўш иш ўрни қолмаганини айтиб, кейинроқ ёрдам бериши мумкинлигини айтади. Ушбу суҳбатдан сўнг улар ўзаро телефон рақамларини алмашиб, янги иш жойи ҳақида уч-тўрт кун ўтиб гаплашишга келишиб олишди.

Келишувга кўра, бироз муддатдан сўнг Тоҳир З. Алимовга кўнғироқ қилди. Зарифбой яқин орада қурилиш компаниясига ишчилар қабул қилинмаслигини билдириб, агар хоҳласа, уни танишлари орқали Мискин темирйўл бекатига ишга жойлаштириб қўйишни айтади. Гап орасида ушбу «хизмат»нинг баҳосини қистириб ўтади.

Биринчи суҳбат чоғида Зарифбой томонидан берилган қуюқ ваъдаларнинг бирданига ўзгариб кетиши Т.Мақсумовда хавотир уйғотмай

фаза қилувчи идоралар билан ҳамкорликда ўтказган тезкор тадбири натижасида З.Алимов Т.Мақсумовдан ўзи талаб қилган 2 млн. сўмни



қолмади. Шу боис яқинлари билан маслаҳатлашиб кўришни айтиб, суҳбатдоши билан хайрлашди.

Бир-икки кун мулоҳаза қилган Т.Мақсумов ҳолат бўйича ички ишлар органига хабар беришни маъқул топди. Келиб тушган мурожаат юзасидан Қорақалпоғистон Республикаси Транспортда хавфсизликни таъминлаш бошқармаси ходимларининг бошқа ҳуқуқни муҳо-

олаётган пайтда ашёвий далиллар билан қўлга олинди.

Тергов ишлари натижасида тўпланган ҳужжатларни кўриб чиққан суд айбдорга нисбатан қонуний жазо тайинлади.

Баймурат ҚУТЛИМУРАТОВ,
майор.
Азамат ПИРНИЯЗОВ,
ўз мухбиримиз.

Қорақалпоғистон Республикаси.



Қилмиш — қидирмиш

СИНАЛМАГАН ОТНИНГ СИРТИДАН ЎТМАНГ

Қизириқлик Нилуфар Маматова мактабда ўқитувчилик қилади. Бир куни у ҳамкасби Насибадан таниши Тожикистондаги олий ўқув юртида ўқийдиган жиянининг ўқишини Термиз давлат университетида кўчириб берганини эшитди. Нилуфарнинг ҳам ўғли, мана, уч йилдирки, Қозоғистонда ўқийди. Нилуфар ва унинг турмуш ўртоғи Ўрозматни эса ўғлининг ўқишини кўчирмаса, диплом олгач, уни ностирификация қилдириш масаласи қийнади. Шунинг учун улар имкон қадар ўғлининг ўқишини Ўзбекистонга кўчириш ҳақида ўйлашарди. Камига кенжаси кўз олдида ўқиса ёмонми?

Нилуфар шулар ҳақида ҳаёл сураркан, уйига қандай етиб келганини сезмай қолди. У ўғлининг ўқишини ҳам ҳамкасбининг таниши орқали кўчириш ҳақида турмуш ўртоғига айтди. Ўрозматга ҳам хотинининг фикри маъқул тушди.

Нилуфар ҳамкасбидан таниши Садир Маматовнинг телефон рақамини олиб, турмуш ўртоғига берди. Шундан сўнг Ўрозмат Садир билан гаплашди.

Садир Ўрозматнинг илтимосини бажонидил қабул қилди. У Ўрозматнинг ўғлини ўқишини Термиз давлат университетидаги иқтисодиёт факультетига кўчириб беришни, фақат олдиндан шартнома пулини тўлаши кераклигини ва бунинг учун 2000 АҚШ доллари беришини айтди. Ўрозмат яна бир қариндоши ўғлининг ўқишини ҳам юриспруденция йўналишига кўчириб беришини илтимос қилганида эса, Садир бунинг нархи бироз қимматлигини айтиб, 3000 АҚШ долларини олдиндан бериши кераклигини таъкидлади. Ўзаро келишишгач, Садир унинг ишончига кириш учун пулларни нотариус гувоҳлигида қабул қилиб олди. Аммо орадан ҳафталар, ойлар ўтса ҳамки, на ўқишни кўчирганлик ҳақидаги хабардан, на пуллардан дарак бўлди.

Ўрозматнинг ичига ғулагула тушди. Фирибгарга

учрагани, камига қариндошини ҳам бунга етаклагани учун ўзини қийин бошлади. Аввалига у кўнғироқларига жавоб бермай қўйган Садир билан эркакчасига гаплашиб қўймоқчи бўлди. Бироқ хотини уни бу шаштидан қайтариб, туман ИИБга мурожаат қилиш таклифини билдирди. Эр-хотин минг пушаймон билан Қизириқ тумани ИИБга мурожаат қилди.

...Ҳолат юзасидан жиноий иш очилди. Тергов-суриштирув жараёнида С.Маматовнинг жиноий ҳатти-ҳаракатлари ўз исботини топди.

Айбланувчи судда ўз айбига иқроқ бўлди. У фирибгарлиги ўз бошига ташвиш келтирганини, Нилуфар билан Ўрозмат эса синалмаган одамга ишониб, хато қилишганини тушунди. Бироқ энди кеч эди...

Баҳриддин ТУРСУНОВ,
капитан.

Сурхондарё вилояти.



ЎТГАНЛАРНИНГ ОХИРАТИ ОБОД БЎЛСИН

Самарқанд вилояти ИИБ раҳбарияти, шахсий таркиби ҳамда Фаҳрийлар кенгаши ички ишлар органлари фаҳрийси, истеъфодаги полковник

Паҳлавон ШАМСИЕВнинг

вафот этганлиги муносабати билан марҳумнинг оила аъзолари ва яқинларига ҳамдardлик изҳор этади.



✓ **Туристические маршруты**

ГДЕ МЕНЯЕТСЯ ВРЕМЯ И ПРОСТРАНСТВО

Путешественников всегда привлекали таинственные и загадочные места.

Барсакельмес – топоним, связанный с древними преданиями, который переводится как «пойдешь – не вернешься». Так называется огромный солончак на западе страны. Чтобы добраться до него, потребуется несколько часов пути из Нукуса.

Площадь солончака составляет примерно 1040 кв. км, ширина с востока на запад 35 км, а с севера на юг – 50 км. Природа его происхождения проста: когда-то Барсакельмес был дном соленого моря. Оно покрывало собой пустыни Каракум, Кызылкум и плато Устюрт. Запасы соли здесь колоссальны.

Тому, кто рискнет пересечь эту местность, придется стерпеть яркое солнце, которое будет слепить сверху и, отражаясь от белоснежной соли, снизу, а также избежать болотистых участков, способных стать ловушкой

для пришлого человека.

Посетившие Барсакельмес, говорят, что просторы солончака вызывают сильные эмоции в силу того, что напоминают фантастическую картину необитаемой планеты. Соль сверкает как лед, на который невозможно взглянуть без слез из-за яркого света. Невероятное зрелище, наполняющее особой энергетикой.

Путешественники приезжают сюда обычно в

конце радиального маршрута Нукус-Муйнак-Арал-Судочье-Нукус. При этом стоит учитывать, что последние километры проходят по бездорожью, а самые последние два километра надо пройти пешком.

В Каракалпакстане достаточно много интересных и суровых достопримечательностей, которые привлекают туристов, и солончак Барсакельмес занимает среди них не последнее место.



ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ (с 7 по 13 августа)



Овен. Неделя благоприятна для творческих порывов. Воспользуйтесь тем, что сейчас для многих вы можете стать примером для подражания. Перед вами открываются новые перспективы. Прежде чем принимать решение, соберите максимум информации, неспешно все взвесьте.



Телец. На этой неделе у вас появится шанс расплатиться со старыми долгами. Откажитесь от любых новых дел, они принесут вам бессмысленные хлопоты. Период не подходит для заключения сделок. Обратите внимание на здоровье.



Близнецы. Нужно завершить дела, которые давно откладывались на потом. Прежде чем приступить к решению задач, убедитесь, что они не утратили актуальность – будет обидно, если затраты времени и сил окажутся напрасными. Выходные проведите активно, съездите на природу, сходите в парк.



Рак. Начнете неделю позитивно. Энергия буквально бьет ключом. Однако это может сослужить вам недобрую службу – делать и озвучивать все, что приходит в голову, неосмотрительно. Ждите хороших новостей. Могут также восстановиться старые связи.



Лев. Вы захотите перемен, почувствуете, что жить так, как раньше, уже не хотите. Не списывайте это на усталость и плохое настроение. Время что-то поменять в своей жизни действительно пришло. Есть шанс завязать полезные знакомства с людьми, которые смогут помочь в решении проблем.



Дева. Появится шанс воплотить в жизнь давнюю мечту, но придется проявить инициативу, сделать первый шаг. Обратите внимание на здоровье и правильное питание. Остерегайтесь теплового удара в жару.



Весы. Неделя потребует от вас нестандартных решений и умения подстраиваться под изменяющиеся обстоятельства. Не старайтесь придерживаться намеченного плана, экспериментируйте, действуйте по ситуации. Доверьтесь интуиции, она вас не подведет. Выходные проведите вместе с родными, они нуждаются в вашем внимании.



Скорпион. В начале недели будет трудно заставить себя что-то делать – искушение поддаться лени пересилит. Помните, что «зависнув» в соцсетях или за просмотром очередного сериала, вы останетесь в стороне от реальной жизни и можете упустить какую-то выгодную возможность.



Стрелец. Стрельцам очень трудно удержаться и не накопить кучу бесполезных вещей. Чтобы не потратить больше, чем можете себе позволить, необходимо обходить стороной магазины, а если что-то нужно действительно срочно, отправьте за покупками кого-то из домочадцев.



Козерог. В начале недели амбиции и излишняя самоуверенность могут привести к серьезной ошибке. Не игнорируйте предостережения окружающих, будьте внимательнее к их словам и тщательно обдумывайте свои решения. Придерживайтесь принципов здорового консерватизма.



Водолей. Вас ожидают неторопливые душевные беседы с близким человеком. Расскажите о наболевшем за чашкой ароматного чая, выслушайте собеседника, поговорите на отстраненные темы. Устроить отдых душе и выговориться вам сейчас просто необходимо.



Рыбы. В начале недели можете пережить настоящую эмоциональную бурю. Причем вспышки будут как со знаком «плюс», так и со знаком «минус». Обратите внимание на здоровье. Выходные проведите на природе вместе с родными и близкими.



Bir qo'shiq tarixi

«Sevgi fazosida uchganlar ko'pdir...»

Muxlislar qalbidan joy olgan shunday qo'shiqlar bo'ladiki, yillar o'tsa-da, o'z umrini yashayveradi. Ana shunday taronalardan biri – «Sevgi fazosi» qo'shig'idir. Kuyini bastakor, prodyuser Ali Niyazimbetov bastalagan. Uni bir-ikkita xonandalar kuylashgan. Ular orasida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Samandar Hamroqulov talqinidagi ijro muvaffaqiyatli chiqib, xit darajasiga yetgan.



Ali
Niyazimbetov



Samandar
Hamroqulov

Qo'shiqning yaratilish tarixi ham qiziq bo'lgan ekan. 1998-yil. Samandar Toshkent davlat san'at instituti talabasi edi. Kunlarning birida ikkita fakultet talabalari qo'shilib dars o'tiladigan bo'lib qoladi. O'qituvchi ma'ruza qilayotgan vaqtda, uni rektor xonasiga chaqirib qolishadi. Domla chiqib ketganidan so'ng, talabalar bo'lajak san'atkorlar emasmi, kimdir chiqib masal aytib berdi, kimdir latifa, yana kimdir ashula aytadi.

Shu payt Ali Niyazimbetov: «Bolalar, bir qo'shiq bor, eshitib ko'ringlar-da» deya fortepianoda kuylay boshlaydi. Ammo taronani oxirigacha aytmay fortepianoni yopib qo'yib, «Bu yog'ini aytmayman!» deb turib oladi. Butun kurs unga: «Qolganini ham ayt» deya yalina boshlaydi. Biroq o'ziga xos fe'l-atvorga ega Ali ashulaning qolgan qismini aytmaydi.

Samandar Hamroqulov esa qiziqib qolib, Ali Niyazimbetovdan ashulani unga berishini so'rab, ikki yilcha ortidan yuradi. Bu orada ular o'qishni ham tugatishadi. Yuqorida aytganimizdek, qo'shiqni bastakorning o'zi va yana bir-ikkita ashulachi ham ijro etadi. Lekin ular unchalik ommalashmaydi.

Nihoyat, 2001-yilga kelib, Ali Niyazimbetov qo'shiqni Samandarga berishga qaror qiladi. Bastakor kassetani Samandarga

berib: «Bu qo'shiq senga, faqat yaxshi oranjirovkachiga borgin», deydi.

Qo'shiqqa oranjirovkachi Igor Pinxasov tomonidan jilo beriladi. Ashula tayyor bo'lgandan so'ng, dastlab radiokanallarida jarang sochadi. O'sha payti bir kunda 27 martagacha efirga uzatilgan ekan. Bu qo'shiq Samandar Hamroqulovga mashhurlik olib keladi. Xonanda bungacha beshta qo'shiq ijro etgan, ammo xalq ichida ommalashmagan edi. Mana, 22 yildirki, Samandar Hamroqulov qayerga borsa, muxlislar, «Sevgi fazosi»ni kuylab bering, deya so'rashar ekan.

Qo'shiq matni muallifi qiziqchi Valijon Shamshiyev ekanligini ko'pchilik bilmasa kerak. Mashhur so'z ustasi she'rni 8-sinfda o'qib yurgan kezlari yozgan ekan. Asli u «Seni sevdim» deb nomlangan. Qo'shiq mashhur bo'lganidan so'ng «Sevgi fazosi»ga aylanib ketgan. Buni qarangki, dildan, samimiy yozilgan she'r kun kelib, xit taronaga aylanib ketishini hech kim o'ylamagan bo'lsa kerak.

Sarvar SOBIROV
tayyorladi.



Valijon Shamshiyev

SEVGI FAZOSI

**Muhabbat yaprog'in uzganing rostmi?
Chechak ochilsin deb kutganing rostmi?
Sevgi gulshanida bir lola bo'lib,
Bulbulning mehrini tutganing rostmi?**

**Tog'lardek matonat tilayman senga,
Daryodek jo'shqin bo'l sevgi bobida.
Va'dangga vafoli bo'lsang sen uchun
Sahifa ochilur baxt kitobida.**

**Sevgi fazosida uchganlar ko'pdir,
Xayolda yulduzni quchganlar ko'pdir,
Ha, quchganlar ko'pdir.**

**Qayg'udan yiroq yur, mening oqqushim,
Yuzingga yuqtirma qaroni aslo.
Libosing misoli qalbing oq bo'lsin,
Sevging chin, pok bo'lsin, ey aqli raso.**

**Tog'lardek matonat tilayman senga,
Daryodek jo'shqin bo'l sevgi bobida.
Va'dangga vafoli bo'lsang sen uchun
Sahifa ochilur baxt kitobida.**

**Sevgi fazosida uchganlar ko'pdir,
Xayolda yulduzni quchganlar ko'pdir,
Ha, quchganlar ko'pdir.**

**Hattoki dengizning tubiga sho'ng'ib,
Aslida vafodan qochganlar ko'pdir,
Ha, qochganlar ko'pdir.**

Postda
Ha no'cry

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Foziljon MAMASHARIPOV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari
bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa
ijodiy uyi bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili:
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №V-5554.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50362 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz